Xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijaraga berish muddati 25 yildan 49 yilgacha uzaytiriladi va bunda qonunlar bilan kafolatlangan amaldagi imtiyoz va preferensiyalar to‘liq saqlab qolinadi.

№ 17 (1249) 2024-yil
8-may, chorshanba

ISSN 2010-7714

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING UTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

milliy tiklanish

Adadi – 5 263

1995-yil 10-iyundan chiqa boshlagan www.mt.uz | milliytiklanish2022@gmail.uz

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi | t.me/milliy_tiklanish_gazetasi

O‘ZBEKISTON O‘ZGARDI, boshqalarni ham o‘zgarishga da’vat qilyapti

3s

BUYUK IPAK YO‘LI zamonaviy asosda qayta tiklanadi

3s

SO‘Z ERKINLIGI OCHIQ parlamentning eng muhim omili

2s

6-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev huzurida oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muhokama qilindi.

Yangi O‘zbekistonda ta’limga, jumladan, kadrlar tayyorlash ixtisoslashgan tizim – oliy ta’limga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, 5-6 yilgina avval ertangi kunga bo‘lgan ishonchini batamom yo‘qotgan, ming harakat qilsa, ming yonsa ham 3-4 million so‘mdan ortiq maosh ololmaydigan, o‘qituvchilar ana shu tizimning qurboniga aylanib qolgandilar. Paxta mavsumidagina esga olinib, so‘ngra “faollikka chorlanadigan” ushbu qatlam vakillari qo‘lida ta’lim-tarbiya olgan avlod esa taqdiriga tan berishdan nariga o‘tolmasdi.

Keyingi yillarda Davlat rahbarining ta’lim tizimidagi ana shunday og‘riqli muammolar yechimi bilan shaxsan shug‘ullangani natijasida tizimga nisbatan munosabat tubdan o‘zgardi.

Sohani tark etgan minglab pedagoglar yana tizimga qaytdilar, ilmiy ishlar yana rag‘batlantirila boshlandi... Yig‘ilishda tizimdagi o‘zgarish va yangilanishlar e’tirof etilsa-da, haligacha mamlakat oliy ta’lim tizimi jiddiy islohotlarga muhtoj ekani, oliygohlarning zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlab berolmayotgani singari dolzarb muammolarga yangi kun nazari bilan qaraldi.

OLIY TA’LIMDAGI ISLOHOTLAR MILLIY TARAQQIYOTNING KEYINGI BOSQICHINI BELGILAB BERADI

Endi davlat granti 4 yilga bitta talabaga emas, balki har yili yuqori baholarga erishgan talabalar orasida qayta taqsimlanadi.

“Partiyamizning 2020 – 2024-yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturida ham mamlakatimiz oliy ta’limini jahon ta’lim va ilmiy hamjamiyatiga integratsiyalashish, zamonaviy talablarni to‘la o‘zlashtirgan yetuk mutaxassislar tayyorlashni yanada kengaytirish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan.

Davomi 3-sahifada

KOREYA DELEGATSIYASI MAKTABGACHA TA’LIM AGENTLIGIDA

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari – Maktabgacha ta’lim agentligi direktori Agrippina Shin Koreya Respublikasi delegatsiyasi bilan uchrashdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston – Koreya hamkorligiga oid keng ko‘lamli masalalar muhokama qilindi.

Shu bilan birga, Koreya delegatsiyasi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan dolzarb vazifalar bilan ham tanishtirildi.

Shundan kelib chiqib, ikki tomonlama hamkorlikni, xususan, mamlakatimiz maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining sog‘lom ovqatlanishini yanada takomillashtirishga qaratilgan hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Uchrashuv konstruktiv va o‘zaro ishonch ruhida o‘tdi, deyiladi Maktabgacha ta’lim agentligi matbuot xizmati xabarida.

Ma’lumot uchun, bu Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi vakillarining Maktabgacha ta’lim agentligiga ikkinchi yirik tashrifi bo‘lib, birinchi uchrashuv 2022-yilning avgustida o‘tkazilgan edi.

M.QOSIMOVA, O‘zA

«MILLIY TIKLANISH»

Balki «Sof san’atning tug‘ilishi uchun NVONLARNI BEKOR QILISH ZARUR»DIR...

Xabaringiz bor, Madaniyat vazirligi hamda «Talent show» mas’uliyati cheklangan jamiyati tashabbusiga ko‘ra yo‘lga qo‘yilgan «Ovoz» (The Voice of Uzbekistan) loyihasi bir necha kuchli iqtidor va ovoz egalarining chiqishlarini namoyish etib kelayotir.

6s

ANONSLAR

» URUSHDA G‘OLIBLAR BO‘LMAYDI 7s

» XALQNING MA’NAVIY HAQQIGA «QOROVUL» KERAK(MI)? 4s

5s

MATLUBA VOSIQ Qissasi

17

Hayotning achchiq nag‘malarini qarangki, ikki yosh hayotidagi eng shirin damlar boshlanayotgan bir paytda – 1937-yilning -dekabrida Vosiq Muhammedov qamoqqa olinadi. Qariyb bir yil davom etgan so‘roq-savoldan so‘ng, hech bir aybi isbotlanmagan bo‘lsada, 1938-yil 5-oktyabr kuni otib tashlanadi...

5-sahifa

2024-yilning 8-may sanasidan. Manba: cbu.uz

AQSH dollari 12683.99. 1 YEVRO 13647.97. 1 Rossiya rubli 139.24. 1 Angliya funt sterlingi 15901.92. 1 Yaponiya iyenasi 82.06.

OLIY TA'LIMDAGI ISLOHOTLAR MILLIY TARAQQIYOTNING KEYINGI BOSQICHINI BELGILAB BERADI

(Boshlanishi 1-sahifada)



Eng asosiysi, oqibatlarga emas, ularni keltirib chiqarayotgan sabablarga birlamchi e'tibor qaratildi. Xususan, ta'lim islohotlari hayot-mamot islohotlari ekani har qadamda takrorlansa-da, shaxsiy manfaatini yosh avlod manfaatidan ustun qo'yayotgan ayrim mutasaddilarning mas'uliyatsizligi sabab zamon taqozo etayotgan yangi kasblar haqida nomigagina o'ylanyapti, xolos. Eng yomoni, bugungi yoshlarning ishonchi, intilishlari ana shunday o'tkinchi manfaatlar yo'lida qurbon qilinyapti. Islohotlarni o'zining o'ta tor qarashlari bilan o'lchashga odatlangan ba'zi bir o'qituvchilar, professorlar, hatto rektorlar afsuski, yaratib berilgan imkoniyat va imtiyozlarni shaxsiy tomorqasi tomon burishgagina yarayaptilar.

Ma'lumki, ta'lim doimiy tarzda rivojlanib, yangilanib boradigan jarayondir. Sohadagi islohotlarni jadallashtirish maqsadida, Davlatimiz rahbarining shu yil 2-fevraldagi qaroriga asosan "Ta'lim sohasida loyihalar markazi" loyiha ofisi tuzilgan edi. O'tgan vaqt mobaynida ushbu idora tomonidan vazirliklar bilan birgalikda o'quv jarayonlarini yangi tamoyillar asosida tashkil etish, kadrlar salohiyatini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar hamda istiqbolli tashabbuslar ishlab chiqildi.

Ammo ana shunga qaramay, shu kungacha bakalavriatda 306 ta, magistraturada esa 625 ta mutaxassislikning bir qismi xalqaro standartlar va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kelyapti, xolos.

Shuningdek, 100 dan ortiq bakalavriat yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklarining maydalashib ketgani natijasida bitiruvchilarda tegishli malaka to'liq shakllanmayapti, bu esa kelgusida ularning ishga joylashishlarida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi muqarrar.

Yana bir muammo: aniq fanlar bo'yicha pedagogika yo'nalishidagi o'quv dasturlarining atigi 50 foizi soha bo'yicha bilimlarni shakllantirishga qaratilganini qanday tushunish mumkin? Shu bilan birga ushbu yo'nalishlarning ikkita fan sohalarida takrorlanishi bitta mutaxassisga nisbatan turli malaka talablarining belgilanishiga olib kelyapti.

Yig'ilishda ana shunday kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ta'limning xalqaro tasnifi, ilg'or xorijiy tajriba asosida bakalavriat va magistratura yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish hamda ayni paytda talab yuqori bo'lgan sohalarda yangi yo'nalishlar ochish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda ta'lim jarayonlarini raqamlashtirgan holda dekanatlar va boshqa ma'muriy tuzilmalarni optimallashtirish masalasi ham muhokama etildi. Shu nuqtayi nazardan, 1-sentyabrga qadar o'quv jarayonlarini to'liq qayta ko'rib chiqib, yangi tizimni joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Keyingi asosiy masala bu – oliy ta'limga qabul tizimini yanada adolatli tashkil etish va davlat grantlarini iqtidorga yo'naltirish masalasi bo'ldi.

Chunki hozirgi qabul tizimi, kvotalarning taqsimlanishi raqobatni to'liq ta'minlamayapti. Ayrim abituriyentlar yuqori ball to'plasa-da, imtihon topshirgan oliygohining kvotasi soniga qarab, o'qishga kirolmay qolish hollari kuzatilyapti.

Endi yangi tartibga ko'ra, muayyan bir yo'nalishga ajratilgan davlat granti doirasida yuqori ball to'plagan abituriyent, tanlagan oliy ta'lim muassasasidan qat'i nazar, davlat grantiga tavsiya etiladi. Ya'ni, yuqori ball olgan yoshlar albatta, o'qishga kiradilar.

Yig'ilishda e'lon qilingan yana bir yangilik barchani, ayniqsa, bilimli yoshlarni quvontirishi aniq: endi davlat granti 4 yilga bitta talabaga emas, balki har yili yuqori baholarga erishgan talabalar orasida qayta taqsimlanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan bu tizimni adolatli yo'lga qo'yish, yoshlar va ota-onalarga yetkazish zarurligi qayta-qayta ta'kidlandi.

Yig'ilishda yana bir jiddiy muammoga e'tibor qaratildi: yurtimizdagi ayrim mezonlar xalqaro standartlar va ish beruvchi talablarga to'liq mos kelmayapti. Mehnat bozoridagi 8 mingga yaqin ishchi kasbidan 5 mingdan ortig'i bo'yicha malaka standartlari ishlab chiqilmagan. Eng taajjublanarlisi, borlari ham aniq va sifatli emas. Malakani baholash markazlarida esa haligacha sertifikatlash yo'lga qo'yilmagan. Milliy malaka tizimiga doir hujjatlar esa hamon eskicha shakllarda yuritilyapti, ya'ni elektron platformalarga o'tilmagan.

Shu bois, Davlatimiz rahbari tomonidan mutasaddilar oldiga Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutini tashkil etib, ish beruvchilar bilan birga malaka talablarini to'liq ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

– Bu aholi bandligiga bevosita daxldor masala. Shuning uchun bu borada qonunlar ishlab chiqib, vazirlik va idoralar mas'uliyatini belgilash, ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish kerak, – dedi Yurtboshimiz.

Taqdimotda muhandislik sohasidagi ta'lim sifati bilan bog'liq masalalar ham tahlil qilinib, mamlakatimizda yiliga 3 mingdan ziyod sanoat korxonalari tashkil etilayotgani, 146 ming ish o'rni yaratilib, ularda yiliga 25 mingdan ziyod muhandis va texnologlarga ehtiyoj borligi ma'lum qilindi.

To'g'ri, bu yo'nalishda 33 ta davlat oliygohida kadrlar tayyorlanyapti, ammo ta'lim sifati bugungi kun talablari darajasida emas. Eng yomoni, jahon miqyosida tan olingan xorijiy universitetlarda allaqachon o'qitilmayotgan fan va mutaxassisliklar hali ham bizda o'qitilmoqda. O'quv reja va dasturlarining qariyb yarmi mehnat bozori va xalqaro standartlarga javob bermaydi.

Afsuski, bunday og'riqli holatlarga uzoq vaqt nomigagina e'tibor qaratildi, xolos. Majlisda qanchadan-qancha yangi kasblarga ehtiyoj sezilayotgan bo'lsa-da, o'sha kasblarni o'qitadigan pedagoglarning o'zlari hali to'la shakllantirilmaganigacha tilga olindi.

Bular tizim mutasaddilaridan, barcha pedagoglardan, ayniqsa, o'zlarini ta'lim tizimi ustunlari sanayotgan rektorlardan juda katta mas'uliyat talab etadi. Shubha yo'qki, davlatning ertangi kuni taqdirini bugungi yosh kadrlar hal qiladi. Lekin ularga millat, Vatan kelajagini qay darajada ishonish mumkin? Shu ma'noda ham ushbu yig'ilish tizimdagi loqayd kimsalar yuziga oyna tutgandek bo'ldi.

Yig'ilishda qatnashgan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi Alisher Qodirovning fikricha, mamlakat taraqqiyoti, kelajagi, barqarorligi kuchli kadrlarga bog'liq. Prezident bu masalani bejizga yana ko'targani yo'q. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar, bildirilgan takliflar sohada juda jiddiy islohotlar o'tkazishni talab qilyapti.

Bu jarayon esa o'z navbatida parlamentdan, siyosiy partiyalar va jamoatchilikdan samarali foydalanish hamda sohaga oid qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etadi.

Yig'ilishda tilga olingan fikr-mulohaza va o'z vaqtida bildirilgan takliflarni tahlil qilib, sohaga aloqador qonunlarimizni tezda takomillashtirish, ishlamayotganlarini esa ishlaydiganlari bilan almashtirish kerakligini anglab yetdim va partiyamiz albatta, bu narsalarni o'z zimmasiga olishi lozimligini tushundim.

Ayniqsa, Parlament huzuridagi ta'lim komissiyasi raisi va ta'limni, tarbiya va ziyolilar qatlamini himoya qilayotgan partiya vakili sifatida ana shunday og'riqli masalalar yechimini kechiktirib bo'lmasligini yanada chuqurroq his qildim, – dedi Alisher Qodirov.

Zotan, partiyamizning 2020 – 2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida ham mamlakatimiz oliy ta'limini jahon ta'lim va ilmiy hamjamiyatiga integratsiyalashish, zamonaviy talablarni to'la o'zlashtirgan yetuk mutaxassislar tayyorlashni yanada kengaytirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan. Shu ma'noda, oliy ta'lim rivoji bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, bu borada taklif va tashabbuslarni ilgari surishda o'z faoliyatimizni tanqidiy tahlil qilish lozimligini tushundim.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

✓ Deputat minbari

SO'Z ERKINLIGI ochiq parlamentning eng muhim omili

Odiljon TOJIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari

3 may — jahon matbuoti erkinligi kuni. Ushbu sana 1994-yildan buyon har yili dunyo bo'ylab, shu jumladan, mamlakatimizda ham keng miqyosda nishonlanadi. Shu kunlarda keng jamoatchilik matbuot, so'z, fikr erkinligi demokratiyani, mamlakatni rivojlantirishdagi ahamiyatini muhokama qiladi va sohada yechimini kutayotgan masalalarga yechim izlanadi.

Kezi kelganda aytish kerak, Prezidentimiz boshchiligida O'zbekistonda olib borilayotgan ochiqlik, oshkoralik demokratik siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinishi natijasida mamlakatimizdagi barcha darajadagi boshqaruv idoralari rahbarlari jurnalistlar bilan muntazam uchrashib, jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalarni erkin muloqot asosida keng muhokama etishi yaxshi an'anaga aylanib ulgurdi. Jumladan, davlat boshqaruvi organlari mas'ullari ham islohotlarning borishi, milliy dastur va strategiyalar bajarilishi yuzasidan matbuot anjumani, brifinglar, ochiq muloqotlarni o'tkazmoqda. Bu harakatlar natijasi xalqaro tashkilotlarning reyting va indekslarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston 2023-yilda "Open Data Watch" tashkilotining ochiq ma'lumotlar reytingida 70 ball yig'ib, jahon bo'yicha 30-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egallagandi.

Bundan tashqari, keyingi yetti yilda media sohasi, axborot xizmatlari tizimi tubdan yangilanishiga xizmat qiladigan 15 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan Ochiqlik indeksi joriy etildi. Unga ko'ra, 8 ta indekator bo'yicha eng yuqori ball to'plagan tashkilotlar e'tirof etilmoqda, salbiy ko'rsatkich qayd etganlarga esa tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Qolaversa, ochiqlikni ta'minlash borasida Antikorrupsiya agentligiga qo'shimcha vakolatlar berildi.

Yaqin o'tmishda xalqimiz davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining OAVda chiqishi yoki matbuot xizmati vakillarining keng jamoatchilik o'rtasida tanqidiy, keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirishini tasavvur ham qila olmasdi. Bugun esa markaziy va mahalliy davlat idoralari, tashkilotlari faoliyatiga nisbatan matbuot, Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan tanqidiy materiallar va ularga bildirilgan tezkor munosabatlar ham sezilarli darajada ortdi.

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirish tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qilayotgan ochiqlik va shaffoflik parlament faoliyatida ham bosh mezonga aylandi. Zero, parlamentning ochiqligi ham demokratiyaning muhim elementidir.

Ko'pchilikka ma'lum, 2021-yil dekabr oyidan boshlab, Qonunchilik palatasining majlislarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy tarzda jonli efirga uzatish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bunday amaliyot, shubhasiz, keng jamoatchilikning qonun ijodkorligi jarayoniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. "Elektron parlament" tizimi loyihalari doirasida Qonunchilik palatasi deputatlarining saylovchilar, murojaatchilar bilan masofadan, onlayn shaklda bevosita aloqasini ta'minlash hamda muloqotini muntazam yo'lga qo'yish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi deputatlar portali" sinov rejimida ishga tushirildi. Palata faoliyati haqida to'g'ri va xolis axborot tarqatilishini ta'minlash maqsadida Parlament axborot markazi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugungi media makonning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, Qonunchilik palatasi rasmiy veb-saytining yangi versiyasi ishga tushirildi.

Parlament ochiqligining ta'minlanishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'p. Shunday bo'lsa-da, bu borada yaqin istiqbolda e'tibor qaratadigan ayrim jihatlar borligini alohida qayd etish joiz.

Birinchidan, Qonunchilik palatasida qabul qilinayotgan qonunlar va qarorlar haqida jamoatchilikni faol ravishda xabardor qilish izchil davom ettiriladi.

Ikkinchidan, Palata a'zolarining jamoatchilik bilan aloqalari yanada rivojlantiriladi. Deputatlar muhim masalalarni birgalikda muhokama qilish maqsadida mustaqil ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari va faollar bilan o'rnatilgan hamkorlikni davom ettiradi.

Uchinchidan, parlamentda muhokama qilinayotgan muhim qonun loyihalari bo'yicha jamoatchilik muhokamalarini onlayn formatda tashkil qilish ishlari yanada jadallashtiriladi. Zero, fuqarolarda xalq vakillariga doimiy o'z fikr va takliflarini yuborish imkonini beruvchi onlayn platforma mavjud bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, parlament jurnalistlarini tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yanada yaxshilab, bo'lajak jurnalistlar bilan seminar-trening va davra suhbatlarini o'tkazib borish rejalashtirilgan. Zotan, Parlament axborot markazi hamda deputatlik korpusi vakillari parlament jurnalistikasi buguni va kelajagiga befarq emas hamda bu borada hozircha yechimini kutayotgan masalalar yetarli ekanligini yaxshi tushunadi.

Xulosa qilib aytganda, matbuot erkinligi va ochiq parlament doimo yonma-yon turadigan elementlardir. Har ikki jihatda ham fuqarolar o'z fikrini erkin ifoda etadi, qarorlar qabul qilishda ishtirok etib, hokimiyatni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

✓ Siyosat

Putin beshinchi marta Prezident lavozimiga kirishdi

Kecha Moskvadagi katta Kreml saroyida Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning inauguratsiya marosimi bo'lib o'tadi. Amaldagi davlat rahbari beshinchi bor o'zining yangi Prezidentlik boshqaruvini bajarishga kirishdi. Putin eng yuqori lavozimni yana olti yil, 2030-yilgacha boshqaradi.

Putin davlat rahbari sifatida Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga qo'l qo'yib, notinch dunyoda "fuqarolarning huquq va erkinliklari"ni himoya qilishga va'da berdi.

Inauguratsiyadan so'ng Rossiya hukumati iste'foga chiqdi. Endi Prezident Davlat dumasiga yangi bosh vazir nomzodini taqdim etadi.

Putin yangi hukumat iqtisodiy sohada ijobiy o'zgarishlar yasashidan umid qilmoqda. Shuningdek, eng zamonaviy qurol-yaroq keng ko'lamda ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish, ayni yo'nalishda ilmiy tadqiqotni kuchaytirish tarafdori. Xalqaro to'lovlar bo'yicha dollardan mustaqil tizim shakllantirilishi, bu boradagi hamkorlikni chuqurlashtirish choralari ko'rilishini ta'kidladi.

Belgilagan ustuvor yo'nalishlar qatorida iqtisodiyotga investitsiyani ko'paytirish, davlat tomonidan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash ham qayd etildi. Ta'lim sifatini oshirish, oilani himoya qilish siyosatini chuqurlashtirish maqsadi ham oshkor qilindi.

Putinning davlat rahbari sifatida yangi boshqaruvga kirishishi dunyoning turli nuqtalarida har xil talqin qilinmoqda. Shundan kelib chiqib, Putin Rossiya barcha davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlashga ochiqligini, faqat tanlov ularda ekanini ta'kidladi.

Bugun ayrim mintaqalarda urush harakatlari kuchaygan, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga darz ketgan, iqtisodiy tanglik avj olgan, xavf-xatarlar kuchayib, yirik iqtisodiyotlar, yirik davlatlar urush uchun qo'llab-quvvatlov, hamkorlar, dastak izlayotgan bir davrda O'zbekiston Toshkent forumi orqali o'zaro manfaatli hamkorlik uchun investor va ishonchli do'stlar qidirmoqda.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
8-may, 2024-yil
№17 (1249) chorshanba

O'ZBEKISTON O'ZGARDI, BOSHQALARNI HAM O'ZGARISHGA DA'VAT QILYAPTI

Shu yil 2-3-may kunlari poytaxtimizda nufuzli tadbir – III Toshkent xalqaro investitsiya forumi bo'lib o'tdi. Anjumanda yuzga yaqin davlatdan 2500 dan ortiq mehmon, jumladan, hukumat rahbarlari, BMT, YTTB, OPEK, SHHT kabi nufuzli tashkilotlardan vakillar ishtirok etgani ushbu forumning ahamiyatidan dalolat beradi, albatta. Forum ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg'or g'oya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylangani esa uning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Prezidentimizning investitsiya forumidagi nutqida qayd etilganidek, ushbu anjuman global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yo'lida xavf va tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to'g'ri kelmoqda.

Bugungi global geosiyosiy va geoiqtisodiy murakkabliklar va transformatsiyalar davrida har bir davlat o'z yo'lini topishga harakat qilmoqda. Investorlar uchun ham mislsiz kurash ketyapti. Birorta davlat muammolarini yakka o'zi hal qila olmasligi borgan sari isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan bir sharoitda eng zarur investitsiya o'zaro ishonch ekani ma'lum bo'lyapti.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizning nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayo tida ham muhim ahamiyat kasb etadigan bunday nufuzli anjumanning yurtimizda o'tkazilganida ramziy ma'no bor.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston islohot-larining birinchi qadami Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shnichilik munosabatlarini tiklash, o'zaro ishonchni mustahkamlash, bu orqali dunyoga yon qo'shnilar bilan qanday hamkorlik qilish kerakligini ko'rsatish bo'ldi va ushbu qisqa davrda kutilganidan ham yaxshi natija berdi. Bu bugun dunyoda hukm surayotgan inqiroz asosida, avvalo, ishonchsizlik yotgan bir sharoitda O'zbekiston to'g'ri poydevorga tayangan holda o'z kelajagini yaratayotganiga yaqqol misoldir.

Bugun transport yo'laklari har bir davlat taraqqiyoti uchun juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Afsuski, mamlakatimiz, xususan, mintaqamiz davlatlari jug'rofiy joylashuvi tufayli dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqa olmaydi. Bitta mamlakat hududi orqali dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatiga ega davlatlar soni 40 dan ziyod bo'lsa, ikkita mamlakat hududi orqali chiqadigan davlatlar bor-yo'g'i ikkita va ulardan biri O'zbekiston. Bu ham tabiiy ravishda Markaziy Osiyo integratsiyasiga, uning markazida joylashgan O'zbekiston taraqqiyotiga xalaqit bermoqda.

Lekin bugungi murakkabliklarga qaramay, yurtimiz mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida qo'shni Afg'onistonda tinchlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shish orqali strategik loyihalar, xususan, O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston yo'nalishi orqali dengiz yo'liga koridor ochishga harakat qil-moqda. Shuning dek, O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy temir yo'li nafaqat mamlakatimiz, qolaversa, Markaziy Osiyoni global tranzit markaziga aylantiradi.

> BIRORTA DAVLAT MUAMMOLARINI YAKKA O'ZI HAL QILA OLMASLIGI BORGAN SARI ISBOT TALAB QILMAYDIGAN HAQIQATGA AYLANGAN BIR SHAROITDA ENG ZARUR INVESTITSIYA O'ZARO ISHONCH EKANI MA'LUM BO'LYAPTI.

Davlatimiz rahbari forumdagi nutqida investorlar va xalqaro tashkilotlarni bu yirik mintaqaviy loyihalarda qatnashishga chaqirib, shu orqali Buyuk ipak yo'lini zamonaviy asosda qayta tiklashni taklif qildi. Ushbu strategik loyihalar hayotiyligi butun dunyoga katta manfaat keltirishi shubhasiz.

Bugun ayrim mintaqalarda urush harakatlari kuchaygan, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga darz ketgan, iqtisodiy tanglik avj olgan, xavf-xatarlar kuchayib, yirik iqtisodiyotlar, yirik davlatlar urush uchun qo'llab-quvvatlov, hamkorlar, dastak izlayotgan bir davrda O'zbekiston Toshkent forumi orqali o'zaro manfaatli hamkorlik uchun investor va ishonchli do'stlar qidirmoqda. Bu O'zbekistonning dunyodagi o'ziga xos o'rnini ko'rsatadi.

Forumda ishtirok etayotgan Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Javdat Yilmaz ta'kidlaganidek, butun dunyo o'zgarishni, o'zgartirishni xohlaydi va o'zgarish uchun maslahatlar, tavsiyalar beradi. Lekin hech qachon o'zi o'zgarishi haqida o'ylamaydi. O'zbekiston noyob namuna sifatida avvalo o'zini o'zgartirdi, kamchiliklarini tahlil qildi va ularni bartaraf etib, o'zgarib, bugun dunyoga hamkorlik taklif qilyapti. Bu tajribadan barcha davlatlar o'rnak olsa arziydi.

Mutaraqqiy mamlakatlarda bo'ladimi, en-di rivojlanayotgan mamlakatda bo'ladimi, iqtisodiyotlar o'rtasida hamkorlik o'rnatilmas ekan, xalqaro tinchlikka kafolat bo'lmayapti. Biz ana shunday kunlarda yashayapmiz. Qisqa muddatda yopiq mamlakatdan ochiq davlatga aylangan O'zbekiston ham bugun ana shu hamkorlikka va dunyodagi tinchlik jarayonlari mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shyapti. Buning isbotini jiddiy va global masalalar muhokama qilinayotgan Toshkent forumida bildirilgan fikr-mulohazalardan ham ko'rish mumkin.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, asosiy maqsadimiz O'zbekistonni xorijiy inves torlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir.

Alisher QODIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari,
«Yangi O'zbekiston» gazetasing 2024-yil 4-may sonidan olindi.

Ustoz

Agar insoniyatni donishmandlar, oqillar, adiblaru ulamolar hamda avliyolaru, payg'ambarlar yaxshi kelajak sari yetaklamasa, yetaklanuvchilarning to'g'ri yo'lni topa olmay qolish ehtimoli bor.

Bobur hazratlarning quyidagi bir satri uzoq yillardan beri tilimda aylanib yuradi: «Yo'lini ne bilgay odam gar rahnoma ko'rsatmasa...» Demak, ustoz degan tushunchamizning juda bebaho, qimmatli va insoniy jihatdan eng yuqori mavqeda turgan yana bir sinonimi bu – rahnamo.

O'qituvchi biz va siz bilan gaplashayotgan ustozlarni ustozi bo'ladi. Ustozni hatto ota-onadan ham yuksakroq darajada e'zozlash va hurmat qilishga to'g'ri keladi. Agar shunday jamiyat qurilmasa, bu jamiyat halokatga giriftor bo'ladi. Har qanday o'quvchi kimning farzandi ekani, otasining qancha molu, dunyosi borligidan qat'iy nazar o'qituvchiga hurmatsizlik qildimi, bu – fojia.

Men o'qituvchiga bo'lgan hurmatsizlikni aqlimga sig'dirolmayman. Biz yosh bo'lgan davrlarda ustozga munosabat boshqacha edi. O'qituvchini ota-onadek, hatto undan ziyoda hurmat qilardik, undan yaxshi ma'noda hayiqardik. Chunki o'qituvchining bilimlarini, o'rgatadigan saboqlarini hamma vaqt ham ota-onadan ololmaymiz. Lekin o'qituvchi mutaxassis bo'lgani uchun sizga bor ilmini bag'ishlab, kelajagingizni, yo'lingizni ta'minlab qo'yadi.

Demoqchimanki, Ustoz bor joyda hayot bor, kelajak bor, taraqqiyot bor.

Yaxshi tarbiya, xushxulqni ham eng avvalo oilada, so'ng aziz muallimlardan o'rganamiz. Ular orqali qalbimizni tarbiyalaymiz va dunyoning eng dohiyona kitoblari olamlariga kirib borib, tuyg'ularimizni charxlaymiz, ularning odamiy tuyg'ular bo'lishiga intilamiz. Shuning uchun ham doimo o'qituvchilarimizni minnatdorlik bilan eslaymiz.

O'qituvchi – oyog'iga bosh qo'yib, ta'zim qilsa arziydigan kasb egasi. Shu ma'noda o'qituvchini e'zozlagan inson hech qachon kam bo'lmaydi va uni insonlik martabasi doimo ortib boraveradi.

Ibrohim GOFUROV,
O'zbekiston Qahramoni,
«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi faxriysi

BUYUK IPAK YO'LI

zamonaviy asosda qayta tiklanadi

Jamshid QOSIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Dunyoda geosiyosiy xatar va tahdidlar kuchaygan bir paytda uchinchi bor o'tkazilgan Toshkent xalqaro investitsiya forumining nufuzi va geografiyasi kengayib, nafaqat O'zbekiston, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham eng muhim anjumanga aylandi. Ilk bor o'tkazilgan forumda 56 davlatdan 2000 ga yaqin investor va yuqori martabali mehmonlar ishtirok etgan bo'lsa, bu safar mamlakatlar soni 93 tadan, mehmonlar esa 2500 nafardan oshdi. Bu shubhasiz ortga qaytmas muhim o'zgarishlarga yuz tutgan O'zbekistonga xalqaro hamjamiyatning ishonchidir.

Anjumanda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so'zga chiqib, investitsion muhit, biznesni qo'llab-quvvatlashdagi muhim tashabbuslar, xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulayliklar haqida batarfsil ma'lumotlar berdi.

"Bizning asosiy maqsadimiz – O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir", – dedi O'zbekiston yetakchisi.

Albatta, mamlakatimizdagi iqtisodiy va sarmoyaviy o'zgarishlardan forum ishtirokchilari ham juda yaxshi xabardor. Toshkentga kelishdan oldin mamlakatimizdagi real voqeliklarni ming chig'iriqdan o'tkazgani aniq.

Haqiqatan ham yurtimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo'ldagi to'siqlarni bosqichma-bosqich olib tashlash uchun qat'iy qadamlar tashlanganiga ko'p bo'lgani yo'q. Natijada iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o'sdi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasayib, savdo aylanmasi muttasil o'sib boryapti. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag'i ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi. O'tgan yilning o'zida xorijiy investitsiya hajmi qariyb ikki barobar ko'paydi.

Forumda bu borada yangi qator aniq chora va takliflar ishlab chiqilgani ma'lum qilindi. Jumladan, xorijiy sarmoyadorlar aksiyalardan olinayotgan dividendlar bo'yicha soliqlardan uch yil muddatga ozod etiladi. Tadbirkorlar barqarorligi reytingi joriy etildi va yuqori reytingga ega subyektlar uchun soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi. Jahon savdo tashkiloti tartib-qoidalari va standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi "Investitsiyalar to'g'risida"gi qonun qabul qilinadi. Tez orada Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi huzurida Xalqaro tijorat sudi ish boshlaydi va sanoat zonalari tizimida mutlaqo yangicha yondashuvlar joriy etiladi. Xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijaraga berish muddati 25 yildan 49 yilgacha uzaytiriladi va bunda qonunlar bilan kafolatlangan amaldagi imtiyoz va preferensiyalar to'liq saqlab qolinadi.

Forumda o'zaro manfaatli hamkorlikka qaratilgan ustuvor yo'nalishlar haqida ham ma'lumotlar berildi. Bunda mintaqamiz uchun dolzarb bo'lgan "yashil" energetika masalasi birinchi yo'nalish sifatida belgilandi. Ayni paytda bu borada 28 ta loyiha ustida ishlar davom ettirilmoqda va 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushini 40 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Shuningdek, bank-moliya, foydali qazilmalar, IT transformatsiyasi yo'nalishlari ham istiqbolli bo'lib, bu borada ham qator loyihalar taklif qilindi.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish ham eng muhim yo'nalishlardan biridir. Ma'lumki, bu boradagi qator strategik loyihalar – Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston hamda O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston temir yo'llarining bunyod etilishi Markaziy Osiyoni Shimol va Janub, Sharq va G'arb bilan bog'laydigan global tranzit markaziga aylantiradi. Ya'ni, bu orqali Buyuk Ipak yo'li zamonaviy asosda qayta tiklanadi. Eng asosiysi, bu loyihalar dengiz yo'liga chiqish uchun eng xavfsiz va arzon koridor qidirayotgan mintaqa davlatlari uchun ham o'ta muhim hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu kabi taklif va loyihalar ishtirokchilar tomonidan mamnuniyat bilan qarshi olindi. Demak, xalqaro investitsiya forumi va sermahsul muzokaralar amaliy hamkorlikni sifat va mazmun jihatdan mutlaqo yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

...lanish
...iy gazetasi
8-may
№17 (...
...shanba

Xalqning ma'naviy haqqiga «QOR OVUL» kerak(mi)?

Keyingi paytda elimiz ardoqlagan, suygan va qadrlagan ayrim san'atkorlarning farzandlari yoki boshqa yaqinlari «biz ular ijodining egasimiz» qabilidagi da'vo bilan chiqmoqdalar.

Xususan, o'tgan yili O'zbekiston va Tojikistonda xizmat ko'rsatgan artist, elimiz ardog'idagi so'z ustasi Hojiboy Tojiboyevning qizi Intizor Tojiboyeva otasining mualliflik huquqiga vorislik talab qilib chiqdi. Mohiyatan bu talabni to'g'ri tushunish ham mumkin. Balki shu sabab Xojiboy Tojiboyevning latifalari telekanallarda deyarli ko'rinmay qolgandir. Bilamizki, bungacha ushbu san'atkorning muxlislari ijtimoiy tarmoqlaru boshqa manbalar orqali uning san'atidan tekin bahramand bo'layotgan edilar.

Yaqinda esa «Men Sherali Jo'rayev qo'shiqlarining qorovuliman» degan kutilmagan da'vo bilan chiqqan Shohjahon Jo'rayevdan ham ko'plab muxlislar norozi bo'ldilar. To'g'ri, balki Shohjahon aytganidek: ...qo'llariga «miltiq»larini olib, Sherali Jo'rayevning qo'shig'ini aytgan otarchi, xonandaning peshonalaridan otilsa, yoki qo'llarini orqalariga qayirib, to'yxonadan, kuyxonadan sudrab chiqib, mashinaga bosib, kerakli joyga olib borib, sud qilinsa, balki adolat qaror topar... Ammo bunday munosabatdan keyin kim yurak yutib Sherali Jo'rayevning qo'shiqlarini kuylaydi?! Kuylanmagan, quloqqa chalinmagan qo'shiqlar esa yillar o'tib unutilishga mahkumdir.

> **"XALQ SEVIB TINGLAYOTGAN QO'SHIQLARNI MUALLIFLIK HUQUQIGA DAXL QILMAGAN HOLDA KUYLASH, ULARNING BARDAVOM BO'LISHIGA HISSA QO'SHISHNING QANDAY YOMON TOMONI BOR? AXIR XALQNING MEHRI QORISHGAN QO'SHIQLAR XALQNIKI EMASMI?**

Axir xalq sevgan san'atkorlarning farzandlari xalqning ma'naviy haqqini uning o'zidan qizg'anib, «qorovullik»ni da'vo qilish o'rniga balki otalarining qo'shiqlari o'lmasligi, bardavom bo'lishi uchun hissa qo'shganlari afzal emasmi?

To'g'ri, hech bir masalaga bir tomonlama yondashib bo'lmaydi. Ma'naviy merosga da'vo qilishning ham huquqiy asoslari bor, albatta. Din nuqtayi nazaridan ham bunga munosabat bildirilgan. Biroq...

Bizningcha, Sharqning buyuk mutafakkirlari al-Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur asarlari butun bashariyatning bebaho mulki bo'lib qolganidek, Sherali Jo'rayev, Bobomurod Hamdamov, Ma'murjon Uzoqov kabi xalq suygan, martaba bergan ulug' san'atkorlarning o'lmas qo'shiqlari ham millatning ma'naviy mulki bo'lib qolishi kerak.

Achchiq bir haqiqatni tan olaylik, garchi bugun Botir Zokirov, Tavakkal Qodirov, Yunus Rajabiy, Sultonposhsha O'dayeva va Olmaxon Hayitova kabi san'at darg'alarining qo'shiqlarini to'yda yoki boshqa tadbirlarda kuylash ta'qiqlanmagan bo'lsa-da, ular ming afsuski, kam kuylanyapti. Yoshlar ko'proq zamonaviy o'zbek va xorij musiqalarini tanlashyapti. Bu vaziyatda xalq sevib tinglayotgan qo'shiqlarni mualliflik huquqiga daxl qilmagan holda kuylash, ularning bardavom bo'lishiga hissa qo'shishning qanday yomon tomoni bor? Axir xalqning mehri qorishgan qo'shiqlar xalqniki emasmi?

Balki Faxriddin Umarov ana shu kunlarni oldindan ko'ra olgani yoki taxmin qilgani uchun ham ushbu vasiyatni qoldirgandir: «Menkim Umarhoji nabirasi, Asilpo'lat o'g'li Faxriddin Umarov, ijodimga tegishli barcha qo'shiqlarimni istagan odam, istagan joyida, hech kimdan va hech qanday ruxsatsiz eshitishi va ijro etishi mumkinligiga shohidlik beraman! Men xalq hofiziman, qo'shiqlarimga tegishli barcha huquqlar ona xalqimnikidir!»

Mehri JAHON

✔ Fikr

TABIBLAR FAOLIYATI QONUN BILAN TARTIBGA SOLINISHI SHART!

Jamiyat sog'ligi bilan bog'liq yana bir katta muammo: O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, "tabiblar" faoliyati umuman tartibga solinmagan. Yoki yetarlicha tartibga solinmagan va ijrosi deyarli yo'q. "Tabiblar" juda kuchli psixolog bo'lib ketishgan. Qo'liga kelgan odamning pulini olib qolishni san'at darajasiga ko'tarishgan. Lekin aksariyat hollarda, tabiblarning oldiga borgan odamlar, aslida kasalxonaga borib jiddiy davolanishi kerak. O'zim guvohi bo'lganim – onkologik kasallarning ko'pi, tabiblarga borib "shifo topib ketsam..." deb umid qilishadi. Bemorning onkologik kasalligini bilgan tabiblar ham, hech ikkilanmay "biz sizni davolab yuboramiz" deyishadi.

Rivojlangan huquqiy davlatlarda kasalxonaga borishi kerak bo'lgan odamni qabul qilib olgan har qanday muqobil tibbiyot (ya'ni, tabiblar va boshqalar) – aniq-muqarrar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Chunki u o'sha bemorning davolanishi kerak bo'lgan vaqtini, umrini o'g'irlayapti, pulini olib yolg'on va asossiz umid beryapti. Bu – haqiqiy, ongli jinoyat. Lekin tabiblarning oldiga borsangiz biz bemorni majburlamadik, o'zi keldi..." deydi. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, kasallik turiga va holatiga qarab, bemorlarni noto'g'ri qabul qilib olgan tabiblarga jinoiy javobgarlik belgilanishi va real ijro etilishi kerak. Aks holda, juda ko'plab odamlarning erta o'limiga sababchi bo'laveradi.

Kamoliddin RABBIMOV

✔ Kun hikmati



Yana «Boysun bahori»da ko'rishguncha xayr!

So'lim Boysun tumanida o'tkazilgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivalining yopilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda dunyo tamadduni beshiklaridan biri, milliy urf-odatlarimiz makoni Boysun tumanida 1 – 7-may kunlari o'tkazilgan an'anaviy festival dunyo xalqlarining ochiq osmon ostidagi do'stlik, hamjihatlik, san'at va qadriyatlar bayramiga aylangani alohida ta'kidlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-fevraldagi "Boysun bahori" xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan festival tamomila yangi shukuh va yangicha uslubda, yuksak badiiy saviyada o'tkazildi.

Bu yil yettinchi marta tashkil etilgan festival uchun maftunkor tumanning Bibishirin mahallasida zamonaviy turistik maskan qurilib, besh qavatli, to'rt yulduzli muhtasham mehmonxona, yirik sahna, amfiteatr, hududlar qo'rg'onlari uchun joy, etnosport maydonchalari va boshqa infratuzilma inshootlari bunyod etildi. Qadimiy o'tov uylar tikilib, Termiz shahri, tumanlar va viloyat tashkilot, muassasalarining 20 dan ortiq qo'rg'oni tiklandi. O'nta mahalla obodonlashtirilib, yo'llar ta'mirlandi. Turistik ko'rsatkichlar o'rnatildi. Boysunlik yog'och o'ymakorlari uchta nafis arka tuhfa etishdi.

Uzoq-yaqindan kelgan mehmonlarning tarif-tavsifu, olqishlariga sazovor bo'lgan bayram doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, milliy sozlar va milliy liboslar, taomlar, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari ko'rgazmalari, dronshoular, etnosport bellashuvlari, shuningdek, uloq-ko'pkari, kurash, tosh ko'tarish, arqon tortish, xo'roz urishtirish, varrak sayli kabi turli xalq o'yinlari, 20 ta tandirda "Tandir fest" (Surxoncha tandir go'sht) va "Havo sharlari" festivallari o'tkazildi.

Boysunlik hunarmandlarning uzunligi 31, eni 5 metrli so'zanasi, uzunligi 25 va eni 5,2 metrli gilami, aylanasi 9 metrli boysuncha noyob do'ppisi ham festival tomoshabinlarida katta qiziqish uyg'otdi. Mamlakatimizda ilk marta Boysunda bir yo'la uch kun 20 ta havo shari uchirilib, mehmonu mezbonlarning tog'lar bag'ridagi maftunkor go'shani tomosha qilishiga qulay sharoit yaratildi.

Milliy qadriyatlar ulug'langan shodiyonaning xalqaro ko'rik-tanlovida Braziliya, Belarus, Belgiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Portugaliya, Rossiya, Ruminiya, Tayland, Tojikiston, Hindiston, Eron kabi 16 davlatdan 81 nafar, mamlakatimizdan 130 nafar folklor jamoasi va yakkaxon san'atkorlar o'z mahoratini namoyish etdi.

Ochiq osmon ostidagi nafis bayramga kelgan xorijlik mehmonlar mamlakatimizda boy nomoddiy madaniy merosimizni yanada chuqur o'rganib, yosh avlod qalbiga singdirishga, yoshlarni teran ildizi uzoq o'tmishga borib taqaladigan milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilayotgan e'tiborga munosib baho berdi.

Qadimiy milliy an'analarimiz asosida bezatilgan qo'rg'onlar sahnalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 250 nafar, Surxondaryo viloyatining Termiz shahri va tumanlaridan ming nafarga yaqin folklor jamoalari ishtirokchisi xalq og'zaki ijodining eng go'zal navolari va milliy an'analarimizni yuksak mahorat bilan tarannum etdi. O'ndan ortiq milliy xalq o'yinlari va tomoshalari tashkil etilib, g'oliblar rag'batlantirilgani ham xorijlik mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Milliy kurash, uloq-ko'pkari musobaqalari taassurotlarga boy bo'ldi.

YUNESKO, Turkiy davlatlar tashkiloti, TURKSOY kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan festival qadimiy va hamisha navqiron vohaning boy sayyohlik salohiyatini ham keng targ'ib qildi.

Festivalda dunyoning 50 dan ortiq davlatidan martabali mehmonlar, soha mutaxassislari, san'atkorlar va muxlislar ishtirok etib, viloyatning turistik maskanlari bilan tanishdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, festival kunlari 400 dan ortiq xorijiy qatnashchi, 20 nafar yuqori martabali mehmon va sayyoramizning turli davlatlaridan 10 ming 200 nafarga yaqin chet ellik sayyoh qadimiy vohada bo'ldi. Yetti kunda mamlakatimizning shahar va viloyatlari, Surxon vohasining shahar va tumanlari, xorijiy davlatlardan 620 ming nafar sayyoh Boysunga kelib, festival bilan tanishdi.

Braziliya, Buyuk Britaniya, Tojikiston, Qozog'iston, Rossiya va O'zbekiston vakillaridan iborat xalqaro hakamlar hay'ati baholab borgan folklor, milliy xalq o'yinlari va tomosha san'ati ko'rik-tanlovida O'zbekiston, Belgiya, Belarus, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari jamoalari faxrli o'rinlarni egalladi.

Xalqaro tadbirni jahondagi 100 dan ortiq ommaviy axborot vositasi vakillari keng yoritdi. Ijtimoiy tarmoqlarga 25 nafar xorijiy, 120 dan ortiq respublika va 250 ga yaqin mahalliy ommaviy axborot vositalari xodimi, bloger va vaynerlarning 2 ming 500 dan ortiq posti joylandi. Xalqaro festival O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalari orqali 70 dan ortiq davlatda keng targ'ib qilindi. Xususan, Germaniya (Stimme der Hauptstadt) Saudiya Arabistoni (Tourism World, Adwaalwatan.com, Alharir.info), Ispaniya (El Mundo Financiero), Janubiy Koreya (UN Journal), Belgiya (The European Geopolitical Forum) Iroq (Wrkaa News), Iordaniya (Ammon News), Marokash (Al-Inmae) Rossiya (Bolshaya Aziya) Qozog'iston ("Almalife, Infozakon) Qirg'iziston (Kabar) Yaponiya, Ummon sultonligi va boshqa mamlakatlarda qiziqarli maqolalar berildi.

Bir hafta davom etgan xalqaro festivalning xorijlik mehmonlari kelgusi "Boysun bahori"ga ham kelishni niyat qilib, mezbonlar bilan quyuq xayrlashdi.

Tadbirda xalqaro festival doirasida viloyat hokimi sovrini uchun o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yini g'oliblari taqdirlandi. Festivalning tantanali yopilish marosimi el suygan san'atkorlar va folklor jamoalarining qiziqarli konsert dasturi bilan yakunlandi.

Xolmo'min MAMATRAYIMOV, O'zA

> Buni qarangki, har bir jadidni jazolashda ustamonlik bilan yo'l tutgan tuzum "dono"lari Matlubani jazolashning eng oson va ta'sirli yo'li –O'zbek maorif institutini yopib muammoga yechim topishadi.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
8-may, 2024-yil
№17 (1249) chorshanba

SHOFIRKONLIKLAR «ZUKKO KITOBXON» TANLOVINING G'OLIBI

Yoshlarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, intellektual salohiyati va iqtidorini namoyish etishi uchun imkoniyat yaratish hamda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan qator loyiha va tanlovlar o'tkazib kelinmoqda. Kitobxonlarning sevimli tanloviga aylangan «Zukko kitobxon» intellektual tanlovi shulardan biri. Buxoro shahridagi Yoshlar markazida har oyda bir marotaba o'tkazilib kelinayotgan «Zukko kitobxon» tanlovining joriy yil aprel oyi hududiy bosqichi yakunlandi.

– Tanlovda ishtirok etish uchun @kitobxontestbot telegramm bot orqali saralash bosqichlarida qatnashish kerak bo'ladi, – deydi Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i Shavkat Rahmonov.

– Saralash bosqichlarida yuqori natijalarni qayd etgan ishtirokchilar tuman va shaharlar miqyosida jamoa bo'lgan tarzda (jami 13 ta jamoa) ishtirok etdi. Tanlov natijalariga ko'ra, Kogon tumani jamoasiga uchinchi o'rin, Buxoro tumani jamoasiga ikkinchi o'rin nasib etdi. Shofirkon tumani jamoasi esa birinchi o'rinni egalladi.

– Loyiha juda ham zo'r ishlab chiqilgan, – deydi Shofirkon tumani jamoasi a'zosi Sevara Ilhomova.

– Kuchli jamoalar juda ham ko'p. Yoshlarimizning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Chunki, barchaga ayonki, kitob o'qigan inson albatta barcha maqsadlariga erishadi. Buni bugungi yoshlar tushunib yetgan. G'olib va sovrindor jamoalar, shuningdek, musobaqada faol ishtirok etgan ishtirokchilar taqdirlandi.

Zarif KOMILOV,
O'zA

MATLUBA Qa VOSIQ Qissasi

Cho'lponning 17 yoshli shogirdi kim bo'lganini bilarmidingiz? Uning sho'rolarni larzaga solgan she'rlarinichi, ularni o'qiganmisiz? Matluba Muhammadning "Mudom Chorning qo'lida ko'p ezilgan millatim", degan misralar bilan boshlanguvchi she'ri o'z davrida sho'ro hukumatini larzaga solgan ekan. Yevropa matbuoti juda ta'sirli bo'lgan bu she'rni qayta-qayta nashr etgach, sho'rolar iste'dodli shoira tahsil olayotgan Moskvadagi O'zbek maorif institutini yopishgan.

Darhaqiqat, Matluba xonimning "Kurtulush yo'linda" nomli she'rida yangragan isyonli ovozi butun bir mamlakatga zarba bergandi. Bu she'rni Sattor Jabbor nemis tiliga tarjima qilgach, o'tli misralar Yevropa bo'ylab ham tarqaladi. Sattor Jabbor bu she'r, shoira haqida faxr bilan: "Sho'rolar qanchalik bosim qilmasin, adabiyotimiz Cho'lponlarni yetishtirishda davom etmoqda, millatning orzu-maqsadlari shu fidoyi qizning qalbidan otilib chiqmoqda", deb yozgan edi.

Mashhur jadid, marg'ilonlik muallim Nurmuhammad Dadamuhammedovning qizi Matluba Muhammad o'z zamonasining iqtidorli yoshlaridan edi. Matluba 1926-yilgacha Qo'qon bilim yurtida tahsil oladi. 1927-yili o'qishini Toshkentdagi ayollar bilim yurtiga ko'chirib, so'ng opasi Mahbuba Dadamuhammedovaning izidan borib, Moskvadagi O'zbek maorif institutiga o'qishga kiradi. U yerda mashhur shoir Cho'lpon, Botu, Shokir Sulaymonlardan she'riyat sirlarini o'rganadi. Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, Abdulhay Tojiyevlar suhbatidan bahramand bo'ladi. U ayniqsa, o'zbek talabalarining ma'rifiy kechalarida Cho'lponning vatanparvarlik mavzusidagi otashin she'rlarini o'qib, o'zi ham shu mavzuda she'rlar yozadi, ko'p o'tmay tengdoshlari orasida mashhur bo'lib ketadi. Uning bu shuhrati Yevropa matbuotigacha yetib boradi. Ayni shu "mashhurlik" sabab Moskvada "Komsomolskaya pravda" gazetasida unga qarshi maxsus maqola chop etiladi. Natijada u o'qishdan haydaladi. Ko'p o'tmay Matluba ariza yozib, o'ziga qo'yilgan aybiarning tuhmat ekanini isbotlaydi va o'qishiga tiklanadi. Bunga bir tomondan O'zbekiston hukumatining aralashuvi bo'lsa, ikkinchi tomondan, Matlubaning Italiya elchixonasiga fuqarolik so'rab murojaat etishi sabab bo'ladi.

Buni qarangki, har bir jadidni jazolashda ustamonlik bilan yo'l tutgan tuzum "dono"lari Matlubani jazolashning eng oson va ta'sirli yo'li – O'zbek maorif institutini yopib muammoga yechim topishadi. Ammo Matluba Muhammad Toshkentga qaytmasdan, Moskvadagi musiqa texnikumiga kirib o'qishini davom ettiradi.

1929-yilga kelib Matluba Leningrad arxitektura instituti talabasi Vosiq Muhammedov bilan tanishadi. Yoshlarning dunyoqarashi, fikrlashlari, orzu-maqsadlari mushtarak bo'lgani sabab, qolaversa, ko'ngil amriga quloq tutib, 1933-yili turmush qurishadi. O'z davrining ancha ilg'or yigitlaridan bo'lgan Vosiq Muhammedov (1905-1938) Munavvarqorining "Namuna" maktabi iftixori, Fitratning "Chig'atoy gurungi" ishtirokchisi va "Ko'mak" uyushmasining faollaridan edi.

Hayotning achchiq nag'malarini qarangki, ikki yosh hayotidagi eng shirin damlar boshlanayotgan bir paytda – 1937-yilning 17-dekabrida Vosiq Muhammedov qamoqqa olinadi. Qariyb bir yil davom etgan so'roq-savoldan so'ng, hech bir aybi isbotlanmagan bo'lsada, 1938-yil 5-oktyabr kuni otib tashlanadi...

Afsuski, turmush o'rtog'i hibsga olinganidan roppa-rosa bir yil o'tib, 1938-yilning 17-yanvar kuni Toshkent tibbiyot institutining 3-bosqich talabasi bo'lgan Matluba Muhammad ham hibs qilingandi. 19-yanvar kuni bo'lib o'tgan ilk so'roqda u turmush o'rtog'ining davlat va xalq oldida hech qanday aybi yo'qligini bayon qiladi. 1938-yil 21-fevraldagi ikkinchi so'roqda esa opasi Mahbuba va uning turmush o'rtog'i, Germaniyada tahsil olib qaytgan kimyogar olim Sattor Jabbor ham uning aybsizligini aytadi. Biroq turmush o'rtog'i Vosiq Muhammedov kabi uni ham biror isbotsiz 1938-yilning 17-may kuni Toshkent viloyat sudi tomonidan 10 yilga qamoqqa hukm etadilar.

E'lon qilingan hukmga ko'ra, Matluba Muhammedova nohaq jazoni sovuq Sibirning Usolskiy lagerida o'taydi. Faqatgina 1940-yil 26-fevraliga kelib, uning arizasiga binoan, ishi qayta ko'rilib, oqlanadi. Vatanga qaytgach, urush yillarida yarim qolgan o'qishini – Tibbiyot institutini tugatadi.

Shum taqdirni qarangki, 1937-yili arxitektura instituti talabasi bo'lgan chog'ida qamalib ketgan ukasi Fatxulla Vorkuta qamoqxonasidan og'ir ahvolda qaytadi. Matluba ukasi bilan Namanganga borib yashaydi va ukasini davolaydi. Faqat Stalin vafot etganidan keyingina Toshkentga qaytishadi. Matluba Muhammad ko'p yillar xalq salomatligi yo'lida halol mehnat qilib, el-yurt hurmatiga sazovor bo'ladi. Bir paytlar Vatan ishqida, istiqlol orzusida otashin she'rlar bitgan shoira O'zbekistonning mustaqillikka erishganini o'z ko'zlari bilan ko'rdi. Jiyanlarining xotirlashicha, u o'sha kuni ko'ksi to'la isyonu alam bilan shukronalar aytib yig'lagan ekan.

Matluba Muhammedova 1998-yili Toshkent shahrida olamdan o'tgan.

Bahrom IRZAYEV,
Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, tarixchi olim

✓ Ibrat

Uning gazini bugun uzib ketishadi, chirog'ini ham…

O'tgan gal uyiga ikki idora odamlari bostirib, kirib, qattiq ogohlantirishgan edi. Beva, erining vafotidan ko'p o'tmayoq ancha qiynalib qolgani, katta qarzi borligi va ro'zg'ordan orttira olmayotganini aytib rosa yalindi, ammo ular quloq solmay, so'nggi muddatni belgilab ketishgandi…

Bugun 9-aprel. Muddat kecha tugagan. Tezroq ovqatni pishirib, choy damlab olish kerak. Iftorgacha ulguradi. Ovqatni ham ko'proq pishirsa bo'lardi-yu, masallig'i kamroqda…

U apil-tapil qozon osib, ovqatini pishirdi, chuvillab turgan yetimlarini to'ydirib, orqasidan choy damladi, ichirib bo'ldi hamki... gaz ham, chiroq ham o'chmadi…

Qosh qorayib qolganida tashqarida allaqanday shovqin eshitilganday bo'ldi.

«Ana, kesishyapti!»

Xayolidan o'tdi uning.

Lekin tashqariga chiqmadi. Yana yig'lab yubordi. Yana qorako'zlari bo'zlab qolgani, ayniqsa, nogironini eslab battar ezildi. Endi uni koyib uyaltirib, oxirgi muddat o'tganini eslatib, elektrdan ham, gazdan ham uzib ketishadi, bu aniq.

Ammo tashqaridagi g'ala-g'ovurlar tindi hamki gaz uzilmadi, uyiga qorong'ulik cho'kmadi.

Ayol cho'chibgina darvozasini ochib, hisoblagichlar o'rnatilgan tomonga qaradi. Hech kim yo'q.

Hayron bo'lib, eshikni yopdi-da, orqasiga qaytmoqchi bo'ldi. Shu on oyog'i ostidagi qop va yelim xaltalarga ko'zi tushdi. Bu kimningdir ehsoni ekanligini fahmlab, duo qilib, bolalari bilan ichkariga olib kirdi.

Qopdagi un ekan. Yelim xaltalarni ham birma-bir ocha boshlashdi. Uch kilocha go'sht, yog', guruch, qand-qurs, yorma, makaron, ikki quti tuxum, o'yinchoq va qog'ozga o'ralgan pul…

Bolalari yeguliklar va o'yinchoqlar uchun quvonishgan bo'lsa, beva pulni ko'rib yelkalari titrab ketdi.

Ertasigayoq gaz va elektr idorasiga yugurdi. Biroq qarzi allaqachon uzilgani, hatto yarim yil oldindan to'lab qo'yilganini aytishganida bunga ishonmay, yuragi bir xapqirdi…

– Kim? Kim to'ladi singlim.

– Bilmasam.

U bu savolni gaz idorasiga ham berdi. Yana o'sha javob.

Beva uyiga qaytar ekan, qo'lidagi pulga kichigi uchun shim, o'rtanchasi uchun tufli, nogiron bolasi uchun shifokor yozib berib, anchadan beri ololmayotgan dorilarini sotib oldi.

U Ramazonda ehson qilishi mumkin bo'lgan saxovatpeshalarni birma-bir eslay boshladi.

«Menimcha Saidmurod hoji balki, Zarif hojidir? Yo'o'q, Hasan hoji bo'lsa kerak. Balki, Oyimxon hoji ona qilgandir bu ishni? Oyshaxon yoki Sanamxon hoji bo'lishi ham mumkin…».

U yana bir qancha hoji va hoji ayalar haqida o'yladi, har o'ylagan chog'i ularni duoga ko'mib tashlardi.

Lekin, buni o'sha kuni gazi va chirog'ini uzib ketishga kelgan yosh yigitlar qilishganini hayoliga ham keltirmasdi…

Muazzam IBROHIMOVA
«Hajga bormagan hojilar» turkumidan

«Bekorchilar makoni»da vaqt o'tkazish bo'yicha

ERKAKLAR BIRINCHI

«Kepios» raqamli konsalting firmasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 2023-yilda qariyb 5 milliard odam yoki dunyo aholisining 60 foizidan ortig'i ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalangan. «Kepios» ekspertlarining ta'kidlashlaricha, 2022-yildan buyon ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 3,7 foizga oshgan. Boshqacha aytganda, fuqarolar ijtimoiy tarmoqlarga kuniga 2 soat 26 daqiqa sarflay boshlaganlar.

Qayd etilishicha, birgina Instagramdan foydalanuvchi o'zbekistonliklar 8,70 million kishini tashkil etgan. Ularning 37 foizi ayollar bo'lsa, 63 foizi erkaklardir. Vaholanki, bu ko'rsatkich 2022-yilda umumiy hisobda 3,7 mln.bo'lgan.

Taassufki, bugun aksariyat kishilar real hayotdagi farzandidan ko'ra, virtual olam bilan ko'proq vaqt o'tkazyapti.

Dunyo tizgini axborot «ovchi»larining qo'lida ekani esa butun dunyoni yosh avlodni Internetdan samarali foydalanish, ya'ni «faktcheking»ni puxta o'rgatishga chorlamoqda.

Bu haqda gap ketganda instagramda erkaklarning ko'pligi balki bu darajada vahima qilarli masala emasdir. Biroq teng yarim kunini ayni instagramdagi hayotda o'tkazayotgan OTA yoki ONAdan farzandi nimani meros qilib olishi mumkin?

E'tibor berdingizmi, bu safar kitob o'qish, bolani mutolaaga o'rgatish haqida og'iz ochmadik. Boisi, bolalari taqdiriga yengil-yelpi qaramaydigan har qanday ota-ona yuqoridagi tahlillardan tegishlicha xulosa chiqaradi.

Munira RAHIMOVA,
O'zDJTU talabasi

Albert Eynshteyn "Agar asalarilar Yer yuzidan yo'q bo'lib ketishsa, insoniyatning ham to'rt yil umri qolgan bo'ladi" degan ekan. Zero, asalarilar bo'lmasa - changlanish bo'lmaydi, o'simliklar bo'lmaydi, hayvonlar bo'lmaydi, odamlar bo'lmaydi. Bugun oziq-ovqatlarning 75 foizi asalarilar tufayli ishlab chiqariladi. Yer ekotizimini saqlab qolishga yordam beradigan eng muhim hasharot ham – ASALARI!

Qayd etilishicha, bitta asalari butun hayoti davomida 5 gramm asal to'playdi. Bir qoshiq asal yig'ish uchun 200 ta asalari to'liq ishlaydi. Ular gullardan 60 g nektar yig'ib, uyaga olib kelishadi. 200 ta asalarining og'irligi 20 gdan iborat. Asalari bir necha haftadan oygacha yashaydi xolos, ammo Onaboshi bundan mustasno. U asalarilar oilasida muhim rol o'ynaydi, chunki u ko'payishga mas'ul shaxs.



milliytiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
8-may, 2024-yil
№17 (1249) chorshanba

Йигирма йил олдин раҳматли Римма Аҳмедова юксак соф санъатнинг туғилиши учун унвонларни бекор қилиш зарур ва санъаткор ижоди тўй репертуарига қарам бўлиб қолиши керак эмас, деган эдилар. Айнан тобелик ва қарамлик бор жойда катта санъат ҳақида фақат хомхаёлни суриш мумкин.

МУНОСАБАТ

Унвонларни бекор қилиш зарур»дир...

Балки «Соф санъатнинг туғилиши учун

Хабарингиз бор, Маданият вазирлиги ҳамда «Talent show» масъулияти чекланган жамияти ташаббусига кўра йўлга қўйилган «Овоз» (The Voice of Uzbekistan) лойиҳаси бир неча кучли иқтидор ва овоз эгаларининг чиқишларини намойиш этиб келаётир.

Гарчи лойиҳада истеъдодларни қўллаб-қувватлаш ва «устоз-шогирд» анъанасини мустаҳкамлаш каби эзгу мақсад кўзланган бўлса-да, негадир миллий кадрларимиз кам кўриняпти. Балки шундандир, бу лойиҳа атрофидаги муҳокамалар, турли мулоҳаза ва таклифлар тинмаяпти.

Лекин тан олишимиз керакки, бу лойиҳа чиндан ҳам тингловчида санъатнинг кучи, унинг энг нозик жиҳатларинида англашга туртки бўляпти. Энг муҳими, «Овоз» санъат майдонида турли брендлару кибрли одимлар билан ижро қилиш эмас, оддийгина, шунчаки, мусиқани дилдан ҳис қилиб, бор вужуди билан куйлаш чинакам санъат эканини тушунтиряпти. Келинг, яхшиси, бу борада ўткир қалам, сўз ва нигоҳ эгаси, журналист Иқбол Қўшшаеванинг янада кенгроқ фикрлар баён қилинган мақоласини эътиборингизга ҳавола қиламиз.

«Овоз» лойиҳаси пайдо бўлганидан бери куй-қўшиқ ҳақида яна ўйлай бошладим. Ўтган аср Европа эстрадаси ва операсини тинглашга кучли эҳтиёж уйғонди. Ва уйда тинглаб юриш, баҳонада болалар қулоғида қолиши учун қўшиқлар рўйхатини тузишим зарурлигини тушуняпман. Негаки, бугунги ярадор дунё буюк тоқатга, кенглигу биродарликка, ўзлигидан кечмаган космополит тафаккурга ниҳоятда муҳтож. Сара куй-қўшик руҳий тўсиқларни енгадиган, ички хурриятга олиб борувчи, «мен» деган майда қобиқчани ёрувчи осон йўллардан бири.

Масалан, Крис Ри ёки Демис Руссос нолаларида дард ва сайқалланган овоздан ташқари чексизлик, олий уйғунликка интилиш бор. Юксак санъатни яратиш учун дард ва овознинг ўзи кифоя эмас, ҳурлик ҳисси, само соғинчи ҳам ҳаводек зарур. Ўшандагина хонанда ишқида жаҳонни сиғдира олиш ҳолатини чиқариб бера олади. Ботир Зокировнинг «Маро бибус»ида шу кайфият чиққан, яъни коинот ўз сирини очган, туйғулар буюк МАЪНО томон талпинади.

Йигирма йил олдин раҳматли Римма Аҳмедова юксак соф санъатнинг туғилиши учун унвонларни бекор қилиш зарур ва санъаткор ижоди тўй репертуарига қарам бўлиб қолиши керак эмас, деган эдилар. Айнан тобелик ва қарамлик бор жойда катта санъат ҳақида фақат хомхаёлни суриш мумкин. Ҳар гал Давлат тадбирларининг финалига кўзим тушганда Римма опанинг гаплари ёдимга тушаверади. Негадир мен учун хижолатли манзара. Саф тортиб турган хонандалар юзидаги илинж – Аллоҳ муждаси йўлидаги энг катта ғов бўлиб кўринади. Беш-ўн дақиқа ичида шўрлик руҳ неччи марта эгилиб-букилади, биргина назарга қарамлик истаги у қалбларни не савдоларга солмайди? Минглаб тансенлари бор баужуларга само ҲЕЧ ҚАЧОН ўз сирини айтмайди...

ЎЗИНГДАН ЎЗДИНГ – ЎЗГАДАН ЎЗДИНГ

Тансен Акбаршоҳ саройидаги мусиқачи эди. Ҳукмдор энг яхши ҳофизу машшоқларни, сара шоиру файласуфларни фақат ўз даргоҳида кўришни хоҳларди. Минглаб мусиқачилар орасидан Тансенни танлаб олади. Қаердаки Тансен бўлса, ўша атрофда ҳеч ким ҳеч нарса ижро этмасин, дея фармон чиқарилади. Кимки унинг санъати билан беллашишга журъат топиб, баҳсда ютқазиб қўйса, ўша заҳотиёқ ё зиндонбанд қилинади, ё саройдан бадарға этилади. Кўплаб мусиқачилар бу савдога гирифтор бўлганди.

Санъат сотиладиган буюм ё мусобақа майдони эмас, **мезонларга сиғмайдиган тилсим эканини англаган шахсгина турфа хил кимўзар ўйинларни инкор этади.**

Баужу Бавара эса тақдирга тан бермади. Баужу исми, Бавара тахаллуси эди. Бавара – телба, дегани. Унинг ҳаётдаги бирдан бир орзуси санъатда кўл етмас юксакликка кўтарилса, ҳатто Тансен ҳам таслим бўлса… Тансен унинг учун рақобат мезонига айланганди. Кунига йигирма тўрт соат ишларди. Охири сабоғини мукаммал қилиш максадида мураббий Харидаснинг ҳузурига боради. У Тансеннинг ҳам устози эди.

– Бир кун келиб Тансендек санъаткорнинг устози бўлишим мумкинлигини хечам ўйламагандим, – дейди фахрланиб Харидас. – Сен ҳам ажойиб мусиқачисан. Ягона камчилигинг, кимдандир ўзишни хоҳлайсан. Ахир, бу истакнинг мусиқага ҳеч алокаси йўқ-ку. Мана шу нарса истеъдодинг кучини кесади. Тўғри, ноёб овозинг бор, маҳорат билан чаласан, лекин юрагинг мусиқага тегишли эмас, орзу-ҳавасга қарам. Агар номаъқул ниятингдан озод бўла олмасанг, ҳеч қачон Тансен билан бўйлаша билмайсан. Унда рақобат туйғуси бўлмагани боис ҳам ҳамиша ғолиб.

Баужу Баваранинг ўзини енгиши осон эмас эди. Майли, сўқир орзу бўлса-да, азбаройи шу туфайли ҳаётини санъатга бағишлади. Лекин устознинг танбеҳи ҳам ўринли. Лекин вақт керак, бу-да бир риёзат… Бора-бора аста-секин Тансенни унута бошлади…

Орадан йиллар ўтди. Қария Харидаснинг икки оёғи ҳам ишламай, юролмай қолди. Остона ҳатлаб чиқолмасди. Қанийди, ҳеч қурса уйи яқинидаги Кришна ибодатхонасига бора олса… Чунки Кришнага юкунмасдан, туз тотишни ўзига эп кўрмасди. Қанчадан-канча ҳакимлар бу зотнинг дардига дармон излади, барибир тузалмади.

Устозининг аҳволидан дарак топган Баужу Бавара ўша заҳотиёқ қишлоғидан етиб келади. Эрта тонгда, айнан Харидас уйғонадиган маҳалда ибодатхона деворига суянганча хониш қила бошлайди. Баужу куйлаётган қўшиқдан шундай маъно сизиб чиқарди: «Дийдорингни кўрмоққа интизор кўзларим… Ўтинаман, оёғимга куч бер. Айт, айбим нима, нега сени кўришдан маҳрумман? Мендан юз ўгирма…». Санъаткорнинг мўъжизакор навосидан куч олган Харидас оёққа турди, шукрона айтмоқ учун ибодатхонага қадар юриб боради. Ибодатдан сўнг уйига қайтаётиб шогирдига юзланади:

– Энди Тансеннинг ёнида бемалол қўшиқ айтишинг, беллашишинг мумкин. Чунки сен мусобақалашиш хоҳишидан, яъни биринчилик истагидан халос бўлибсан. Табригимни қабул эт. Санъатинг хаста оёғимники даволай олдими, демак, ҳар қандай қулфга тушадиган сеҳрли калит сохибисан.

Баужу Бавара устози Харидаснинг нигоҳига ўйчан боққанча, таажжуб оҳангида жавоб берди:

– Буни қандай тушунмоқ керак?.. Мен фақат мусиқани севаман, ёлғиз куйга ошуфтаман. Тансен деган исмни мутлақ унутдим. Ким биландир беллашмоқ истаги болаларча ғўр хоҳишим бўлган. Сиз ҳақ эдингиз – ўшанда мен мағлуб эдим. Ҳозир ҳам ҳаксиз. Лекин калбимда ғолиблик даъвосининг ўзи йўқ.

Харидас мамнун ҳолда шогирдини бағрига босади:

– Баужу, ўғлим, сен чиндан баварасан! Менинг телбамсан! Ҳозир шу даража юксалгансанки, ишон, Тансендан ҳам ўзгансан!

Санъат сотиладиган буюм ё мусобақа майдони эмас, мезонларга сиғмайдиган тилсим эканини англаган шахсгина турфа хил кимўзар ўйинларни инкор этади. «Мен» деган даҳшатли занжирдан озод бўлмас экансан, ўзингни хоҳ ўтга ур, хоҳ чўққа, барибир қўланкасан, холос. Бунинг учун ижод муроқабага айланиши зарур.

✔ Ҳисобот

ЎЗБЕКИСТОН «МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИНИНГ 2023 ЙИЛ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИ ЮЗАСИДАН ҲИСОБОТ

"Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ, ҳар йили Ҳисоб палатаси сиёсий партияларнинг молия-хўжалик фаолиятини текширади. 2024 йилнинг 10 февралидан 12 мартига қадар "Миллий тикланиш" демократик партиясида ҳам 2023 йилдаги даромад ва харажатлар тўғрисидаги ҳисоботнинг ҳаққонийлиги бўйича ўрганиш ўтказилди.

Қайд этилишича, партия ўз молиявий хўжалик фаолиятини "Сиёсий партиялар тўғрисида"ги, "Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида"ги Қонунлар ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 16 мартдаги 86-сонли карори билан тасдиқланган "Сиёсий партияларнинг устав фаолиятини давлат томонидан молиялаштириш тартиби тўғрисида"ги Низомга ҳамда ўз Устави ва Дастурига мувофиқ амалга оширган.

2024 йил 1 январь ҳолатига кўра, "Миллий тикланиш" демократик партияси тизимида 14 та ҳудудий ташкилот ҳамда 7212 та бошланғич партия ташкилоти фаолият олиб борган. Партия аъзолари сони 392 425 нафарни ташкил этган.

Ана шу даврда Олий Мажлис Қонунчилик палатасида "Миллий тикланиш"дан сайланган депутатлар сони 36 нафарни ташкил этди, халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашларидаги партия гуруҳлари эса 1250 нафар депутатдан иборат.

"Миллий тикланиш" демократик партияси Уставига мувофиқ, партия фаолиятини молиялаштириш манбалари - Давлат бюджетидан ажратилган маблағлар, аъзолик бадаллари, юридик ва жисмоний шахсларнинг хайрия ёрдамлари ҳамда амалдаги қонунларга зид бўлмаган бошка барча тушумлардан иборат.

2023 йил 1 январ ҳолатига партия ҳисоб рақамларидаги қолдиқ 3 миллиард 859 миллион 875 минг сўмни ташкил этган.

2023 йилда партия ҳисоб рақамларига 39 миллиард 799 миллион 236 минг сўм миқдорида маблағ келиб тушган.

Жумладан, партиянинг Устав фаолиятини молиялаштириш учун Давлат бюджетидан 28 миллиард 254 миллион 136 минг сўм, Олий Мажлиснинг Қонунчилик палатаси, шаҳар ва туман депутатлигига сайловларда иштирок этиш учун 18 миллион сўм, аъзолик бадалларидан 1 миллиард 274 миллион 291 минг сўм, ҳомийлик ва хайрия тушумларидан - 3 миллиард 044 миллион 800 минг сўм, бошка тушумлардан 7 миллиард 208 миллион 009 минг сўм.

2023 йилдаги партиянинг сарф-харажати 37 миллиард 112 миллион 542 минг сўмни ташкил этди.

Шу жумладан, иш ҳаки ва унга тенглаштирилган тўловлар ҳамда иш берувчининг ажратмалари харажатларига 21 миллиард 033 миллион 226 минг сўм - (66,1 %) йўналтирилган.

Хизмат сафарига харажатлар 195 миллион 527 минг сўмни (0,4%) ташкил этди.

Дастурий вазифалар билан боғлиқ харажатларга 5 миллиард 461 миллион 442 минг сўм (13%) сарфланди.

Асосий воситалар бўйича харажатлар 738 миллион 256 минг сўмни (1,7%) ташкил этди.

Товар-моддий захираларига харажатларига эса 290 миллион 122 минг сўм (0,7%) йўналтирилди.

Коммунал хизмат харажатлари эса 298 миллион 823 минг сўмни (0,7%) ташкил этди.

Телефон, телекоммуникация ва ахборот хизматларига 248 миллион 376 минг сўм (0,7%) харажат қилинди.

Ёнилғи ва ЁММ харажатларига 248 миллион 584 минг сўм (0,7%), ижара харажатларига 1 миллиард 027 миллион 426 минг сўм (2,4%), сақлаб туриш ва жорий таъмирлаш харажатлари эса 722 миллион 308 минг сўм (1,7%)ни ташкил этди.

Бошка харажатларга 6 миллиард 830 миллион 453 минг сўм (15,6%) йўналтирилган.

Йил якунига кўра, партия ҳисоб рақамларидаги қолдиқ 6 миллиард 546 миллион 570 минг сўмни ташкил қилди.

Ҳисоб палатасининг текширув хулосасига мувофиқ, аниқланган камчиликларни бартараф этиш чора-тадбирлари партия Марказий кенгаши Ижроия Қўмитасининг йиғилишида муҳокама этилиши ва тасдиқланиши кўзда тутилган.

2024 йилга мўлжалланган бюджет кўрсаткичлари, яъни партия Устав фаолиятидаги вазифаларни молиялаштиришга эса давлат бюджетидан 30 миллиард 847 миллион 452 минг сўм сарфланиши кўзда тутилган.

Шундан:

иш ҳаки харажатларига - 19 миллиард 164 миллион 088 минг сўм

4 группа харажатларига - 11 миллиард 683 миллион 364 минг сўм.

✔ Биласизми?

ҚАНДАЙ КАСАЛЛИКЛАР ЭНГ ХАВФЛИ САНАЛАДИ?

2024 йилнинг I чорагида юртимизда 40 197 киши вафот этган. Шундан эркаклар сони 21,9 минг, аёллар эса 18,3 минг нафарни ташкил этди.

Ўлимнинг асосий сабаблари:

- **қон айланиш тизими касалликлари – 57,9 фоиз;**
- **ўсимталар – 9,1фоиз;**
- **нафас олиш аъзолари касалликлари – 7,5 фоиз;**
- **бахтсиз ҳодиса, заҳарланиш ва жароҳатланишлар – 4,5 фоиз;**
- **овқат ҳазм қилиш аъзолари касалликлари – 4,1 фоиз;**
- **юқумли ва паразитар касалликлар – 1,2 фоиз;**
- **бошқа касалликлар – 15,7 фоиз;**

УРУШДА ҒОЛИБЛАР БЎЛМАЙДИ...

Араб халқида шундай афоризм бор: оҳу қочиб қутулолмаса, шерга емиш бўлади. Шер қувлаб етолмаса, очлик қурбони бўлади. Тирикчилик ғамида ҳаётини таваккал қилиб, яйловга келган оҳу ва сўнгги мадорини оёқларига йиғиб, емиш қидирган шернинг бу хатти-ҳаракати табиат қонунига кўра «яшаш учун кураш» ибораси билан изоҳланади.

Аммо егани нони, ичгани суви, кийгани кийими бўла туриб, уруш отлиғ аждарҳонинг бошини кўзғайдиган инсонларнинг бу саъй-ҳаракатларини қандай изоҳлаш мумкин?!

Буюк Британия Бош вазири бўлган Уинстон Черчилл «уруш айримларнинг манфаати учун бутунлай бегуноҳ одамларнинг ўлиши»дан бошқа нарса эмас деган эди. Урушни нари борса бир неча субъектлардан иборат сиёсий гуруҳлар бошлайди, жабрини эса оддий халқ кўради. «Уруш» дегани бу вайронкорлик, заҳарли тутунларга тўла осмон, тўс-тўполон, вахшийлик, неча юз минглаб инсонларнинг ўлими демакдир.

Инсониятга ҳеч қачон рўшнолик келтирмаган бўлса-да, дунё тарихида қонли тўқнашувлар жуда кўп бўлган, минг афсуски, улар ҳозир ҳам давом этмоқда. Дунё тарихи шу кунга қадар ғувоҳ бўлган жаҳон урушларининг ҳар иккаласи ҳам бемисл вахшийликлар билан борликни ларзага келтирган. Жумладан, 4 йил, яъни 1914 -1918 йилларда давом этган Биринчи жаҳон урушига Сараево вокеаси, яъни ўн саккиз ёшли сербиялик миллатчи, талаба Гаврило Принцип томонидан Австрия-Венгрия империяси тахти вориси Франц Фердинанд ва унинг рафиқаси София Хотек ўлдирилгани сабаб бўлган. Бироқ қуйидаги рақамлар ушбу уруш бир нечта гегемон манфаатлар тўқнашуви билан давом этиши натижасида инсоният тарихидаги энг мудҳиш вокеалар сабабчиси бўлганини кўриш мумкин.

Чунончи, урушда қатнашган 38 та дунё мамлакатининг жами 1,5 млрд. дан ортиқ аҳолисидан 74 млн. га яқини урушга сафарбар этилган. Шундан 10 млн. киши қурбон бўлган, 20 млн. киши эса турли тан жароҳатлари олиб, яраланган. Аҳолининг катта қисми касаллик ва очлик қурбони бўлган. Биринчи жаҳон урушининг асосий иштирокчилари бўлган давлатлар ўз миллий бойликларининг учдан бир қисмини йўқотган. Мазкур уруш туфайли Россия империяси, Австрия-Венгрия империяси, Усмонийлар империяси ва Германия империяси якун топган. Кўлами бир неча ўнлаб давлатлар хисобига кенгайган Биринчи жаҳон урушидан сўнг бамисоли Ернинг кўкси илма-тешик бўлиб кетгани, дарёлар ўзанидан чиқаёзгани, тупроклар қонга қоришгани, осмон кимёвий заҳарларга тўлгани, табиий офатлар кучайиб, турли касалликлар авж олгани, иқтисодий танқислик суръатлари ўсиб, очарчилик, қаҳатчилик инсоний қадриятларни емира бошлагани ҳам шубҳасиз.

Бу қадар мудҳиш ҳолатни инсоният ўз қўли билан яраттани, совуқ қуроллар, манфур ниятлар, манфаатлар тўқнашувининг салбий оқибатлари, афсуслар бўлсинким, инсониятга сабоқ бўлмади.

Орадан қарийиб 20 йил ўтиб, кўплаб тарихчилар томонидан инсониятга қарши уруш деб баҳоланган Иккинчи жаҳон уруши бошланди. Мазкур уруш ҳам дастлаб коммунистик ва фашистик режимлар ўртасидаги яқинлик ва тафовутлар сабаб юзага келгандек кўринса-да, дунёнинг 60 дан зиёд мамлакатлари микёсида жуда кенг кулоч ёзди ва миллионлаб одамларнинг ёстиғини қуритди. Эътиборингизни биргина мамлакатимиз мисолидаги рақамларга қаратмоқчиман: ушбу урушга сафарбар қилинган 263 000 дан зиёд аскар ҳалок бўлган, 132 670 киши бедарак йўқолган, 60 452 нафари урушдан ногирон бўлиб қайтган. Бундан ташқари 10 минглаб ўзбекистонлик жангчилар асирга тушган. Бу – фронтга сафарбар қилинган юртдошларимизнинг ҳар уч нафаридан бири уйига қайтмаганини билдиради.

Уруш 1945 йили гарчи расман тугаган деб эълон қилинган бўлса-да, мамлакатлар ўртасидаги совуқ муносабатлар уруши давом этди. Отишма ҳамда қон тўкишларсиз, «тинчлик учун кураш» ғояси билан яшаш мамлакатларни ҳолдан тойдирди. Зиёлилар, оддий халқ вакиллари тинчлик учун чақириқларга имзо тўплаш билан машғул бўлган бўлса, саноат сўнгги моделдаги ҳарбий қуроллар: жанговар самолётлар, танклар, ракеталар ишлаб чиқаришдан бир зум бўлса ҳам тўхтамади.

Қорни тўйиб овқат емаган, кийим-кечак етишмаслигига кўниккан халқ дунёнинг ҳали у, ҳали бу нуқтасига ташланаётган атом бомбаси таҳдиди билан яшаб, турли мамлакатларнинг «пўписа»лари билан ҳисоблашишига тўғри келди. Халқ онгига «қимматчилик бўлса ҳам, қаҳатчилик бўлмасин» деган гап сингиб кетган.

80-йилларда эса дунёдаги барча атом қуроллари бирданига портласа, Ер курраси ўз ўқидан чиқиб кетиши мумкин(!) деган башоратнинг таъсир доираси анча кенг эди.

Бугун ижтимоий тармоқларда гўдакларнинг мунгли овозларини эшитиб, илтижоли нигоҳларида тириклик нишоналари тугаб бораётганини, бир кечада ўнлаб, юзлаб қабрлар қад кўтараётганини кузатар эканмиз, икки ёки учта мамлакат ўртасидаги тўқнашувлар юзлаб замондошларимизнинг тақдирига мудҳиш якун ясаётганидан куюнамиз. Тинчликнинг улуғ неъмат эканини яна бир карра ҳис этамиз.

Бугун ўзгаларнинг осойишта ҳаётига осонгина соя солишни «маҳорат» деб биладиган, қорни тўйиб овқат ейишни орзу қилган халқларни ойлаб, йиллаб боқиш мумкин бўлган миллиардлаб маблағларни «уруш» келтириб чиқарадиган лойиҳалар яратишга сарфлаётганларни не дейиш мумкин?

Биринчи ва иккинчи жаҳон уруши натижалари шуни кўрсатадики, урушда ғолиблар бўлмайди, уруш қурбонлар майдонидир. Бир йил давом этган урушнинг сояси ўзидан кейинги бир неча даврларга қоронғилик солиши тарихдан бизга маълум. Биргина мисол: Иккинчи жаҳон уруши даврида Ўзбекистон мудофаанинг моддий эҳтиёжини таъминлашда бор кучини аямай сарфлаган. Чунончи, уруш йилларида аҳоли томонидан мудофаа жамғармасига 649,9 млн. сўм нақд пул, 4 млрд. 226 млн. сўм заём пули, 52,9 кило олтин ва кумуш йиғилди.

Армия учун меҳнаткаш аждодларимиз кун-тун ишлаб, миллионлаб гимнастёрка, пахтали комбинезон, этик ва қўнжли ботинка юборгани, Енгил саноат вазирлиги корхоналари томонидан фронтга миллионлаб метр газлама, тонналаб ғалла, картошка ва сабзавот, полиз маҳсулотлари, қуруқ ва ҳўл мевалар жўнатишгани архив ҳужжатларида ва тарихий манбаларда келтирилган.

Ўзбекистонда уруш йилларида 280 та янги корхона барпо этилган. Республиканинг саноат потенциали 1945 йилга келиб 1940 йилдагига нисбатан деярли 2 баробар кўпайган.

Жумладан, нефть қазиб олиш 4 баробар, металл ишлаш тармоқлари маҳсулотлари 4,8 баробар, машинасозлик маҳсулотлари 13,4 баробар, кўмир қазиб чиқариш 30 баробардан зиёд, пўлат ва прокат эритиш 2 баробар, электр энергияси ишлаб чиқариш 2,42 марта ортган.

Бироқ Ўзбекистоннинг икки карра зиёд потенциали уруш йилларида фронт учун самолёт, авиамотор, авиабомба, миномёт, миналарни йўқ қилувчи қурол, ҳарбий-кимёвий аппаратура, мина, снаряд, граната, дала радиостанциялари учун радио лампа, парашют, ҳарбий-санитария ва ҳаммом, кир ювиш поезди, кўчма ошхона ва кўпгина ҳарбий анжомлар етказиб беришга сарфланган.

Бундан ташқари, кўнгилли ватандошларимиз ўз хонадонларидан от, қўй, эчки каби қорамол, иссиқ кийим, қуруқ мева, ун, буғдой, ёрма, гуруч, нақд пул кўринишидаги ёрдамларини ҳам тинмай фронтга юбориб туришган, турли мамлакатлардан кўчириб келтирилган ўн минглаб кишиларга бошпана бериб, ғамхўрлик кўрсатишган, ҳарбий госпиталларни оталиққа олишган. Зеро, бунча катта потенциал билан ишлаган завод ва фабрикаларнинг кучи иқтисодиётимизни, бозорларимизни ривожлантиришга, халқимизнинг ҳаётини фаровонлаштиришга қаратилганида, бунча катта куч ва маблағ билан юзлаб мактаблар, кутубхоналар қурилганида урушдан кейинги ўн йилликлар очарчилик, қаҳатчиликда ўтмаган бўлар эди. Ота-боболаримизни, момоларимизни ҳаёти бирмунча ғўзал кечарди. Ва ниҳоят, бу каби манфур урушлар юз бермаганида, дунё мамлакатларининг куч-қудрати илм-фанни, маданиятни, санъатни тараққий эттиришга қаратилганида, бугунга келиб дунёнинг бошига кўплаб глобал муаммолар тушмаган бўлар эди.

Уруш оқибатида минглаб болалар етим қолишган. 200 минг етим болани ўзбек оилалари бағрига келиб қўшилиши уруш отлиғ ҳаракатнинг бешафқатлигига тимсолидир. 14 нафар болани ўз тарбияларига олган Шоаҳмад Шомаҳмудовлар оиласи шарафига ишланган «Сен етим эмассан» фильмидаги уруш манзаралари кўплаб халқларнинг чеккан азоб-уқубатларини акс эттиргани шубҳасиз.

Уруш даврида ташкил этилган «Ишчи батальони»да 155 минг юртдошимиз хизмат қилиб, тил билмаслик, қаҳратон совуқда юпун кийим ва оғир яшаш шароитидаги очлик оқибатида қасалликдан нобуд бўлгани ҳам тарихий манбаларда келтирилган. Иккинчи жаҳон уруши барча халқларга улкан қулфатлар келтирди. Миллионлаб аёл бева ва болалар етим бўлиб қолишди. Ота-оналар фарзанд доғида қайғу-алам билан бу дунёдан кўз юмдилар. Халқлар шу даражада қашшоқлашдики, юқорида тилга олганимиз — шер ва оҳу каби «яшаш учун кураш» бошланди.

«Умри холани пешин намозига чиқаришди. Қабристондан чиқиб келишаётганида Шоикром одамларнинг ўзаро гапини эшитиб қолди.

- Уруш тамом бўпти, эшитдингизми?» Таниқли ёзувчи Ўткир Ҳошимовнинг «Урушнинг сўнгги қурбони» ҳикояси айнан ушбу жумлалар билан тугайди. Ҳикоя қаҳрамони — тирикчилик манбаи бўлган ягона сигири ўғирлаб кетилган, бола-чақасига нон топиб беролмаганидан ҳар куни оғриниб, замондан нолийдиган Шоикром қулупнайзорни ўғридан қўриқлаш учун электр токига улаган симига онаси Умри бува тушиб, қазо қилади.

Кичкинагина ҳикоядаги улкан ҳақиқатлар, яъни уруш гирдобидаги давр машаққатлари, қийинчиликлари кишини узоқ ўйлантириб қўяди. Ҳикоя гарчи Умри бувини «урушнинг сўнгги қурбони» дея эътироф этган бўлса-да, урушдан кейинги қаҳатчилик даври қурбонлар сонининг янада ортишига сабаб бўлганини англаш мумкин.

Пойтахтимиздаги Хотира майдонида барпо этилган 35 жилдли Хотира китобини кўздан кечирсангиз, ҳар бир исм-шариф рўпарасида муштипар оналарнинг аччик кўз ёшларини, оталарнинг мунгли нигоҳларини, ёстиғининг ярми бўшаб қолган келинларнинг армонларини, етим қолган болаларнинг фарёдини эшитгандай бўласиз.

Фронт ортидаги машаққатли меҳнатлари оркали жанг қилиб, бир метр матони ўзидан аяб, фронтга жўнатиб, тутнинг пиширгига етиб олишни орзу қила-қила яшаш учун курашиб, очарчилик, қаҳатчилик қурбонлари бўлган аждодларимизнинг исмлари битилган ҳаёт китоби ҳам темир китобдан кам эмаслигини қайси биримиз инкор эта оламиз!

Иккинчи жаҳон уруши асоратлари бўйича шу кунгача илмий тадқиқотлар, археологик қазилмалар олиб бораётган қатор гуруҳлар томонидан аниқланаётган янги-янги маълумотлар уруш ҳақидаги маълумотларга ойдинлик киритишга, йирик рақамларни ўзгартиришга, уруш тарафдорлари бўлган мамлакатларнинг асл ниятларини аниқлашга хизмат қилиши билан бирга ўтган давр манзарасини янада мудҳишлантириб, урушга чорловчи ғоялар ортидан эргашишдан тийилишга ҳам чорлаши шубҳасиз.

Ер юзи инсоният бахтли бўлиб яшаши учун яратилганлигини, бир қарич ерда ҳам инсон ғўзал орзулар қилиб, ўз меҳнати билан бахтли бўла олиши мумкинлигини ҳис этмаган инсон ҳар қанча моддий бойлиги бўлмасин, бахтиёр бўлолмайди. Чин инсон ўзгалар қонини тўкиш эвазига тузилган йирик давлатларда эмас, ҳамма бахтли яшайдиган давлатлардан бирида яшашни афзал билади. Чин инсон бошига мусибат етган инсонларга ёрдам қўлини чўзишни ўз бурчи деб ҳис этади. Чин инсон ўз манфаатини халқ манфаатидан устун қўймайди.

Биз икки улкан уруш манзаралари атрофида фикр юритдик. Бироқ тахт ва ворислик талашувлари, баъзан биргина маликанинг макри билан қилинган неча-неча қатлиомлар ҳам инсонга қаратилган урушдир. Уруш томонлар кучи ва ҳудудлар кўлами билан эмас, бегунох тўкилган қонлар билан сифатланади.

Ўзбек халқи тарихда ҳам, бугун ҳам жаҳон ҳамжамияти томонидан бағрикенглиги билан аҳамият касб этиб келган. Халқимизнинг ушбу сифати мамлакатимиз Бош Қомусида ҳам қонун билан асосланган. Зеро, кўп миллатли мамлакатларда бағрикенглик – тинчлик, тараққиёт гаровидир. Одамлар ўртасида низолар келиб чиқишининг олдини олишда, халқлар ўртасида соғлом маънавий муҳитни барқарорлаштиришда толерантлик муҳим роль ўйнайди. Кўплаб урушларнинг келиб чиқишига бевосита миллатчилик сабаб бўлаётган бугунги кунда Ўзбекистонда 16 та конфессия асосида 130 дан ортиқ миллатлар ўртасида дўстлик, бағрикенглик муҳити шакллангани дунё халқлари томонидан алоҳида эътироф этилаётгани бежиз эмас, албатта. Халқимизга хос бағрикенглик фазилати айниқса, иккинчи жаҳон уруши даврида яққол намоён бўлганлигига тарихнинг ўзи гувоҳдир.

XXI аср — ахборот асри. Урушни келтириб чиқарадиган сабаблар ҳам «оммалаштирилаётгандек» гўё. «Ҳаёт ресурсларининг танқислиги», «Дунё аҳолиси сонининг меъёрдан ортиб бораётгани», «Ер юзига сиғмай қолишлик» каби глобал мавзулар ғўёки урушларни ёқлайдигандек. Аммо ушбу «глобал сабаблар» остида ҳам аллакимларнинг манфаатлари ётганини унутмаслигимиз, ҳар қандай урушга ҳеч бир сабаб асос бўла олмаслигини англашимиз лозим. Зеро, биргина бегуноҳ инсон конини тўкишга қаратилган ҳар қандай ҳаракат манфур урушнинг парчаси демакдир.

Ҳазрат Навоийнинг «Ҳамса»сига киритилган достонлардан бирида бу дунё инсон гули учун яралди, унинг гуллашига ишонинг ва у гуллайди деган фалсафий қараш акс этади. Зотан, инсонни қурбон қилиш, орзу ва истакларини яксон қилиш, нафасини заҳар билан бўғишга қаратилган ҳар қандай урушнинг дунёга муносиб эмаслиги айни ҳақиқат-ку!

Ёши 70-80 дан ошиб, бу дунёнинг ҳою-ҳаваслигини, бу дунё имтиҳон эканлигини ҳис этиб, ҳаётининг қолган қисмини яхши амаллар қилиш тараддудига тушиб қолган ҳар бир мўйсафид ёзилмаган китоб эмасми?!

Биз тинчлик тарафдоримиз демоқда муҳтарам Президентимиз. Қайси элда зилзила, сув тошқини ёки ёнғин оқибатида талафот кўрган инсонлар бўлса, мамлакатимиздан дарҳол ёрдам фонди йўлга отланади, кўнгил сўралади. Ҳамюртларимиз бориб, жабрдийда элларнинг ёнида туриб беришади. Барча элларга фақат ва фақат тинчлик истайдиган, «Қўшнинг тинч-сен тинч» ақидасига амал қиладиган, миллати, дини, иркидан қатъи назар, дунё майдонида бахтли яшашга ҳақли деб биладиган, ўзга элларда урушдан жабр чекаётган норасида гўдакнинг кўзидан бир томчи ёш тўкилса, у билан бирга қўшилиб йиғлайдиган, юраги оғрийдиган бағрикенг халқимизнинг Юртбошиси ҳам чин инсон сифатлари билан дунё тинчлиги тарафдори эканлиги, қайси бир элнинг подшоси оддий халқнинг розилиги, қон тўкилишига қаршилиги билан хисоблашмай, ўз манфаатларини устун қўяётган бир даврда, халқимиз билан бир ёқадан бош чиқариб, урушга қарши тураётганлигининг ўзи бизнинг бахтли халқ эканлигимиздан далолатдир.

Шиддат билан ривожланаётган бугунги давр очиқ курашлар майдонига айланиб бормоқда. Таҳдидларга бой замонда «халқ манфаати учун» никоби остида ўз истак-ҳоҳишлари йўлида тубанлик билан «зўр»лардан «зўр» бўлишга уринаётганларнинг «уруш» отлиғ совуқ ном билан курашга отлангани, «Учинчи жаҳон уруши» иборасини илгари суришлари фақат бир нарса, яъни яна бегуноҳ инсонларнинг қурбон бўлишлари билан таъбирланади, холос. Юқорида зикр этганимиздек, урушда ғолиблар бўлмайди...

> **Уруш оқибатида минглаб болалар етим қолишган. 200 минг етим болани ўзбек оилалари бағрига келиб қўшилиши уруш отлиғ ҳаракатнинг бешафқатлиги тимсолидир. 14 нафар болани ўз тарбияларига олган Шоаҳмад Шомаҳмудовлар оиласи шарафига ишланган «Сен етим эмассан» фильмидаги уруш манзаралари кўплаб халқларнинг чеккан азоб-уқубатларини акс эттиргани шубҳасиз.**

Фуркат ЖЎРАҚУЛОВ,
Республика маънавият ва маърифат маркази раҳбарининг биринчи ўринбосари,
сиёсий фанлар доктори, профессор

fb.com/milliytiklanish.gazetasi
t.me/milliy_tiklanish_gazetasi
www.mtgazeta.uz
milliytiklanish2022@umail.uz

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi

«Milliy tiklanish»
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
www.mt.uz
№17 (1249)
8-may 2024-yil, chorshanba

Қутлаймиз!

7 май – Миллий қўшиқчилигимиз ривожига муносиб ҳисса қўшиб келаётган ҳамда жаҳон миқёсида ҳам тан олинган санъаткор, Маданият вазири

Озодбек НАЗАРБЕКОВ

таваллуд топган кун!

Озодбек Назарбековнинг халқ дилидан жой олган қўшиқлари

Мендирман

Ватан учун кўксим тоғ қалқондир шаъним,
Уни деса шамолдай учқур саманим.
Бор бўлсам чаманимдир, ўлсам кафаним,
Мангубердилик менга тақдири азал.
Ким юртидан ёвни қувса мендирман ўша,
Ким юртига содиқ турса мендирман ўша,
Мендирман ўша...

Ким юртидан ёвни қувса мендирман ўша,
Ким юртига содиқ турса мендирман ўша,
Мендирман ўша...

Юртим ҳар қарич ери оримдан улуғ,
Суйган фарзандларимдан, ёримдан улуғ.
Нада ор, нада ёр, боримдан улуғ,
Минг жондан бу тупроқнинг ҳар гарди афзал.
Ким уни кўзга сурса мендирман ўша,
Ким уни кўзга сурса мендирман ўша,
Мендирман ўша...

Ёвнинг хушбўй гули ҳам алафдир менга,
Юртим ҳам гўё Каъба тарафдир менга.
Турон арслони бўлмоқ шарафдир менга,
Йигит учун ватан деб яшамоқ гўзал.
Ким юртидан ёвни қувса мендирман ўша,
Ким юртига содиқ турса мендирман ўша,
Мендирман ўша...

Кун келади, ёвларнинг боғи сўлгайдир,
Ватаним ҳурлик деган бахтга тўлгайдир.
Кун келар, энг буюк давлат бўлгайдир,
Миллионлаб "Мангуберди" бўлар у маҳал.
Қай она ўғил туғса, мендирман ўша,
Қай она ўғил туғса, мендирман ўша,
Ким юртидан ёвни қувса мендирман ўша,
Ким юртига содиқ турса мендирман ўша...
Мендирман ўша...

ВАТАНИМ МЕНИ

Нега чаман истамас янтоқ,
Саҳросидан келмайди бери?
Ахир қўмсар ёнган шу овлоқ
Не қилса ҳам унинг ватани.

Шу бир янтоқчалик бўлмасам,
Болам дема ватаним мени.
Бешигимсан аллалар айтган,
Эшигимсан кузатиб кутган.

Ҳар баҳордан авайлаб-асраб,
Эркалатиб, кафтида тутган.
Хизматингда турмасам сени,
Болам дема ватаним мени.

Фахрим менинг – "Шошмақом"ларинг,
"Чоргоҳ"ларинг, "Сараҳбор"ларинг.
Савлатига дунё бош эгкан,
Самарқанд-у Бухороларинг.

Тарихингни билмасам сени,
Болам дема ватаним мени.
Хизматингда турмасам сени,
Болам дема ватаним мени.

Буюк сафар бошладинг мана,
Ҳар қадамда қилдинг тантана.
Фарзандларин бошин силаган
Сендайин юрт кўрмадим яна.

Дилбандларин бошин силаган
Сендайин юрт кўрмадим яна.
Агар қадринг билмасам сени,
Болам дема ватаним мени.

Хизматингда турмасам сени,
Болам дема ватаним мени.

ДИҚҚАТ ТАНЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ЎРТАСИДА

«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТКАЗАДИ.

ҒОЛИБ 20 МИЛЛИОН сўм пул мукофоти билан тақдирланади.

ШУНИНГДЕК, ТАНЛОВДА 30 НАФАР ҚЎШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР БЎЙИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ.

ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҲАМДА ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА 2024 йилнинг сентябрь ойида – Ўқитувчи ва мураббийлар байрами арафасида топширилади.

Мурожаат учун: (90) 245-18-10

Танлов ҳомийлари билан танишинг:

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ЎЗБЕК ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАМҒАРМАСИ

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi
Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nuriyman ABULXASAN, Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, To'lqin TESHABOYEV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'affor OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Telefon:
(97) 755-10-11

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 263.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 521
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 04:10

ISSN 2010-7714

123456